O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

FIZIKA-MATEMATIKA FAKULTETI

"Himoyaga ruxsat etilsin"
Fakultet dekani, dosent
_____ D.I.Yunusova
“_____”_____ 2013 йил

5140200 – "Fizika va astranomiya" ta’lim yo’nalishi
IV- kurs talabasi

KOMILOVA Dilso’za Ismatqulovnaning

"Gigant sayyoralar fizikasi" va uni axborot texnologiyalari muhitida o’qitish metodikasi

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Talaba: _____D.Komilova
Ilmiy rahbar: "Fizika va uni o’qitish metodikasi" kafedrasi dosenti
_____B.Sattarova
Taqrizchilar:
_____

"Himoyaga tavsiya etilsin"
"Fizika va uni o’qitish metodikasi"
kafedrasi mudiri, _____ dos.
X.M.Mahmudova
"____"_____ 2013 y.

Toshkent - 2013

MUNDARIJA

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. XXI asr nafaqat ilmiy-texnik axborotlar ko'lamining keskin ortishi bilan, balki texnologiyalarning sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilganligi bilan ham farqlanadi. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov «YAngi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari o'z vaqtida ishlab chiqarish va joriy etilishini ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur», deb ta'kidladilar[1]. SHu bois, fanning so'nggi yutuqlari asosini aks ettiruvchi ta'lim mazmuni ham tubdan yangilanib borilishi talab etiladi.

Bugungi kunda astronomiya darsi soatlarining keskin qisqartirilganli sababli, auditoriya soatlarida o'qitish uchun ajratilgan o'quv soatlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan o'rinli foydalanish orqali yuqori samaraga erishish mumkin.

Ma'lumki, Astronomik kuzatishlarni bajarish yaxshi samara beradi, biroq, akademik litseylarda astronomiyani o'qitishda sinfdan tashqari astronomik kuzatuvlar uchun 6 soat ajratilgan bo'lib, bulardan 4 soati kechki kuzatuvni, 2 soati esa kunduzgi kuzatuvni tashkil etadi. Bunday kuzatishlarning ko'pchiligini auditoriya darsi sharoitida, kunduz kuni o'tkazib bo'lmaydi. Hozirgi zamon astronomik kuzatishlari raqamli kameralar vositasida bajariladi va ularning natijalari axborot markazlarida saqlanadi. Kuzatish natijalari keng ilmiy-pedagogik jamoatchilik uchun internet orqali ochiq bo'lib, ulardan o'quv jarayonida foydalanilsa, zamonaviy bilimlarni shakllantirishga zamin yaratiladi.

Akademik litseylarda rivojlangan hozirgi zamon astronomiya fanini o'qitish sifatini yaxshilash va takomillashtirish muammosining dolzarbligi, zamonaviy axborot texnologiyalarini astronomik ta'lim jarayoniga joriy etishning yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi va uslubiyotda tadqiq qilinmaganligi, astronomiyadan ma'ruzalarni olib borishga bag'ishlangan metodik ishlanmalarning yetarli emasligi, virtual laboratoriya ishlarining akademik litseylar o'quv-amaliyotida

[1] Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоšда. -Т.:Ўзбекистон, 1999. 37-38-бетлар

qo’llanilmaganligi va ularning ishlanmalari va uslubiy tahlillarining mavjud emasligi mazkur tadqiqotning yo’nalishi va mavzusini tanlash uchun asos bo’ldi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: akademik litseylarda astronomiyadan "Gigant sayyoralar fizikasi" mavzusini axborot texnologiyalari muhitida o’qitish metodikasini yaratish va astronomik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo’llash bugungi kunnig dolzarb masalalari ekanligini asoslab berish.

Tadqiqot ob’ekti: akademik litseylarda astronomiyani zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari muhitida o’qitish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: akademik litseylarda astronomiyani zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari muhitida o’qitishning shakllari, metodlari va vositalari.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

1. ALlarda astronomiyani namoyishli tajribalar asosida takomillashtirishning didaktik hamda metodik funktsiyalarini nazariy va amaliy jihatdan o’rganish.
2. ALlarda astronomik bilimlarni berishda, ularning bilim va malakalarini, ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish maqsadida elektron ishlanmalar ("Gigant sayyoralar fizikasi" mavzusi misolida) yaratish va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish.
3. Ishlab chiqilgan usullardan foydalanib, ALlarda astronomiya ta’limi jarayonida pedagogik sinov-tajribalar o’tkazish va natijalarini umumlashtirish.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

1. Akademik litseylarda ta’lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari muhitida astronomiyani o’qitishning mazmuni, metodlari va vositalari.
2. Astronomik ta’limni samarali amalga oshirish hamda o’quvchilarni mustaqil o’quv faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodik ishlanmalarni yaratishga qaratilgan asosiy yondashuvlar.
3. Ishlab chiqilgan metodika asosida astronomiya ta’limi jarayonida o’tkazilgan pedagogik sinov-tajriba natijalari.

Ilmiy yangiligi:

- akademik litseylarda astronomik bilimlarni berishda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning pedagogik asoslari;
- astronomik ta’limni samarali amalga oshirish hamda talabalarning mustaqil o’quv faoliyatlarini rivojlantirish maqsadida "Gigant sayyoralar fizikasi" mavzusi axborot texnologiyalari muhitida o’qitish metodikasi yaratildi hamda amaliyotga tatbiq etildi.

I BOB. GIGANT SAYYORALAR FIZIKASI

I.1. Yupiter - osmon xukmroni

Yupiter, ming yillar avval Rim xudolari sharafiga atalgan, bizning Quyosh sistemamizda 9 ta sayyora ichida o'zining g'aroyibligi sababli Quyosh bilan tenglashishga raqobatlashib kelayotgan sayyoradir. U sayyoralar ichida eng ulkani bo'lib, asteroidlar asosiy belbog'idan keyin turadi. Yupiter massasi boshqa barcha sayyoralarning massasini qo'shganda kelib chiqadigan massadan bir oz ko'proq.



I.1 - rasm.
Yupiter – Quyosh sistemasidagi eng katta sayyora.

Yupiter orbitasining katta yarim o'qi 5,2 a.b. ga teng bo'lib, orbita ekstsentisiteti $e = 0{,}0489$, orbita bo'ylab aylanish davri - 11,867 yil. Orbita tekisligining ekliptika tekisligiga og'maligi – $1^0 18'17''$. Orbita bo'ylab o'rtacha harakat tezligi- 13,1 km/s.

O'qi bo'ylab aylanish davri - 9 soat 55 minut. Ekvatorining xar bir nuqtasi soatiga 45 ming km tezlik bilan xarakatlanadi. Markazga intilma kuch ta'siri tufayli Yupiter bir oz siqiq (siqiqlik koeffitsienti 6% dan ko'proq). Yupiter - qattiq jism bo'lmay, gaz va suyuqliklardan tashkil topgani uchun uning ekvatorial qismlari, uning qutblari yaqinidagi qismlariga ko'ra tezroq aylanadi.

I.2 – rasm.
Yer yuzidagi yaxshi teleskoplarda sayyora sirtining qoplamlarini yaxshi ilg'ash mumkin.

Yupiterning aylanish o'qi uning orbitasiga deyarli perependikulyar bo'lgani uchun, sayyorada fasllar almashinuvi bo'lmaydi.

Sayyoraning massasi $M_♃ = 318\,M_⊕ = 1{,}9\cdot10^{27}$ kg, radiusi $R_♃ = 11{,}2\,R_⊕ = 71\,492$ km. Shu bilan birga sayyora juda xam siyrak, uining urtacha zichligi 1,33 g/sm^3 bo'lib, Yerning urtacha zichligidan to'rt marta kam. Yupiter sirtida, uning bulutli qismida erkin tushush tezlanishi $g_♃ = 2{,}53\,g_⊕$. Kuzatishlar uchun Yupiter ajoyib ob'ektdir. U bir tekis yorug' nur taratadi (al'bedosi - 0,52). Kichik teleskopda yoki binokl orqali kuzatilganda uning 1610 yildayoq ochilgan to'rtta katta yo'ldoshlari ko'rinadi.



I.3 - rasm
Yupiterning ichki tuzilishi.

Zamonaviy tasavvurlarga ko'ra, sayyora va Quyosh tarkibi umumiy bo'lgan gaz va chang bulutlardan vujudga kelgan. Yupiterga Quyosh sistemasidagi barcha sayyoralar massasining 3/2 qismi to'g'ri keladi, ammo bular Yupiter yadrosmia termoyadro reaktsiyalarining boshlanishiga yetarli bo'lmadi: sayyora asosiy ketma-ketlikdagi eng kichik yulduzdan 80 marta yengil. Ammo Yupiter o'zining issiqlik manbasiga ega. Moddaning radioaktiv parchalanishi va energiya bilan bog'liq bo'lgan siqilishi natijasida yuzaga keladi. Agar u faqatgina Quyosh tomonidan isitilgan bo'lganida edi uning sirt qatlamlari xarorat 100 K bo'lar edi, o'lchashlar esa 140 K ekanini ko'rsatadi. Sayyoraning iliqlik rejimida, uning markazidan

chiqayotgan energiya oqimi katta rol uynaydi. Sayyora Quyoshdan oladigan energiyadan ko’ra ko’proq energiya chiqaradi.



I.4 - rasm
Atmosferaning kimyoviy tarkibi

Yupiterinng atmosferasining 89% vodoroddan tashkil topgan va 11 % geliy va kimyoviy tarkibi bo’yicha Quyoshni esalatadi. Atmosferasining kalinligi 6 ming km. Atmosferaga olov rangni fosfor va oltingugurt birikmasi beradi. ¤yuvchi amiak va atsetindan iborat bo’lgani uchun inson xayoti uchun xavflidir. Sayyora sirtidagi eng mashxur tuzilma bu, 300 yildan beri kuzatilayotgan (u 1664 yilda Robert Guk tomnidan ochilgan) katta qizil dog’. Uning o’lchami – 15 X 25 ming kilometrga teng bo’lgan ko’p yashovchi atmosfera uyurma bo’roni bo’lsa kerak.



I.5- rasm
Atmosferaning tuzilishi.

Taxmin qilinishicha, Yupiter atmosferasi uchta qatlamdan iborat. Yuqorisida - muzlagan amiakli bulutlar; uning tagida – metall va ammoniy serovodord kristallari, eng pastki qatlamida esa – muzli suv va balki suyuq suv xam mavjuddir.



I.6 – rasm
Katta qizil dog'- Yupiter atmosferasidagi gigant bo'ron o'rami, uning yonida Yer sayyorasining kattaligi solishtirilgan.

Bundan tashqari, Yupiter vodorod va geliydan tashkil topgan tojga ega.

Yupiter atmosferasi va boshqa gazli sayyoralarning atmosferalari sayyora ekvatoriga parallel ravishda keng polasalarda esuvchi katta tezliklardagi shamollar xususiyatiga ega.

Uchinchi ming yillikka kelib Yupiterning 30 ga yaqin yo'ldoshlari mavjudligi ma'lum bo'ldi. Ulardan to'rttasi o'lchamlarining va massalarining kattaligi bilan farq qiladilar. Ular sayyoraning ekvator tekisligida deyarli aylana orbita bo'ylab xarakat qiladilar. 20 ta tashqi yo'ldoshlar sayyoradan shu darajada uzoqdaki, sayyora sirtidan ularni qurollanmagan ko'z bilan ko'rish imkoni mavjud emas.



I.7– rasm.
Yupiter yo'ldoshlarining sistemasi.

Nomi	Yorqinligi , *m*	Orbita radiusi, ming. km	Yupiter atrofida aylanish davri, "-" sut.	Radius, km	Massa, kg	Ochilgan vakti
Metida	17,5	128	0,29478	20	$9 \cdot 10^{16}$	1979
Adrasteya	18,7	129	0,29826	13×10×8	$1 \cdot 10^{16}$	1979
Amal'teya	14,1	181	0,49818	31×73×67	$7{,}2 \cdot 10^{18}$	1892
Teba	16,0	222	0,6745	55×45	$7{,}6 \cdot 10^{17}$	1979
Io	5,0	422	1,76914	1830×1818×1815	$8{,}9 \cdot 10^{22}$	1610
Yevropa	5,3	671	3,55118	1565	$4{,}8 \cdot 10^{22}$	1610
Ganimed	4,6	1070	7,15455	2634	$1{,}5 \cdot 10^{23}$	1610
Kallisto	5,6	1883	16,6890	2403	$1{,}1 \cdot 10^{23}$	1610
Leda	20,2	11 094	238,72	5	$5{,}7 \cdot 10^{16}$	1974
Gimaliya	15,0	11 480	250,566	85	$9{,}5 \cdot 10^{18}$	1904
Lisiteya	18,2	11 720	259,22	12	$7{,}6 \cdot 10^{16}$	1938
Elara	16,6	11 737	259,653	40	$7{,}6 \cdot 10^{17}$	1904
Ananke	18,9	21 200	-631	10	$3{,}8 \cdot 10^{16}$	1951
Karme	17,9	22 600	-692	15	$9{,}5 \cdot 10^{16}$	1938
Pasife	16,9	23 500	-735	18	$1{,}6 \cdot 10^{17}$	1908
Sinope	18,0	23 700	-758	14	$7{,}6 \cdot 10^{16}$	1914
S/1999J1	21,0	24 160	-768	5	$1{,}0 \cdot 10^{16}$	1999

Yupiter yo'ldoshlarining jadvali

Axamiyat bersangiz, bir qator kichik yo'ldoshlar deyarli bir xil orbitalar bo'ylab xarakatlanadilar. Olimlarning fikricha, ularning barchasi Yupiterning tortishish kuchi ta'sirida, nisbatan kattaroq bo'lgan yo'ldoshlarining parchalanishi tufayli hosil bo'lgan qoldiqlari bo'lishi mumkin. Yupiterning tashqi yo'ldoshlari sayyoraning gravitatsion kuchi ta'siriga bo'ysunishi ehtimoli xam yo'q emas edi, ularning barchasi Yupiter atrofida uning aylanishiga qarama-qarshi yo'nalish bo'ylab aylanadilar.



I.8- rasm
Amal'teya Yupiter radiusining 1,5 masofasida aylanadi. Uning al'bedosi bor-yo'²i 10 % ga yetadi.



I.9-rasm
Amal'tey osmoni. Yupiter eniga 40^0 atrofidagi sohani to'smoqda.

Uchkarrali ***Yupiterning xalqasi*** 1979 yilda Yupiter yaqinidan, «Voyadjer» uchib o'tayotgan vaqtida ochilgan. Uning radiusi 129 ming km bo'lib, qalinligi 30 km ga teng. Xalqa juda siyrak bo'lib, chang va mayda tosh zarralaridan tarkib topgan.



I.10 - rasm
Yupiter halqasi. Sayyoraning soyali tomonidagi ko'rinish.

Iodagi vulqonlar. Io – Yupiter yo'ldoshlarining eng birinchilaridan bo'lib, 1610 yilda Galiley tomonidan ochilgan. Massasi va radiusiga ko'ra yo'ldosh Oyga o'xshagan bo'lib, Yupiter osmonida yorqin qizg'ish disk yoki yarimoy shaklida ko'rinadi. Ioning diametri 3630 km ga teng.

I.11- rasm. Io

I.12– rasm.
Vulqonlar yuzlab kilometr balandlikkacha otilmoqda.



I.13– rasm
Io osmonida Yupiter 20^0 diametrga ega. Oldingi fonda – oltingugurtning oqishi, orqa fonda esa - otilayotgan vulqon.

Ioda 20 ta, otilish balandligi 300 km gacha etadigan xarakatdagi vulqonlar borligi aniqlangan. Ular tomonidan otiladigan gazlarning asosiy turi - bu keyinchalik Io sirtida oq modda ko'rinishida qotib qoladigan oltingugurt dioksidi. Uning ba'zi miqdori kosmosga uchib ketib, Yupiterni o'rab turuvchi xalqani hosil qiladi. Io sirtining qirmizi rangi, uning sirtidagi oltingugurt gazi bilan kondensatsiyalangan oltingugurtning eg'ilib qolishi bilan tushuntiriladi. Ioda Yerdagidan bir million marta siyrak bo'lgan atmosfera mavjudligi aniqlangan. Ammo bu atmosfera Merkuriy atmosferasidan zichroq.



I.14– rasm.
Yo'ldoshning orbitasi koslorod ionlari va oltingugurtdan iborat bo'lgan, o'ziga hoslikka ega.



I.15– rasm.
Ionin ichki tuzilishi.

Doimiy seysmologik aktivliklar sababli, Ioning sirti xali yosh bo'lib (bir million yil atrofida): unda deyarli meteorit kraterlari kuzatilmaydi; lekin lavalar oqimi va qora oltingugurt daryolari mavjud. Xisoblashlarga ko'ra, Io Yupiter, Ganimed va Yevropadan kelayotgan oqim ta'sirida qiziydi. Yupiter yo'ldoshlari magnit maydon ta'siri ostida yotadilar va bu holat Iodagi vulqonlar faoliyatini tushuntiradi. Ioning zichligi - 3,55 g/sm^3. Silikatli qobiq ostida temir yadro joylashgan.

Yevropadagi okean. Yevropaning radiusi 1569 km bo'lib, uning usti suvli muz bilan qoplangan. Ko'rinishidan, muz qobiq ostida 100 kilometr chuqurlikda suvli okean mavjud bo'lishi mumkin. Yo'ldoshning zichligi ancha yuqori bo'lib, 3,04 g/sm^3 ga teng.



I.16– rasm.
Yupiter yo'ldoshi Yevropa.



I.17- rasm
Yo'ldoshning ichki tuzilishi.

1995 yil 7 dekabrda «Galileo» kosmik stantsiyasi Yupiter orbitasiga chiqdi, bu esa uning to'rtta yo'ldoshini: Io, Ganimed, Yevropa va Kallistoni o'rganishga katta imkoniyat yaratdi. Magnitometrik o'lchashlar Yevropa va Kallisto yaqinida

Yupiterning magnit maydonining kuchayishini qayd qildi. Katta qiymatga ega bo'lgan induktsiyaning va kuzatilayotgan magnit maydonning kuchlanishini tushuntirish uchun, ushba yo'ldoshlarda ferromagnit moddadan iborat yadro mavjud degan ²oyaning bo'lishiga yo'l quymaydi, bunday holatda magnit maydon, masofaning kubiga proportsional holatda tushishida, kuzatilayotgandan sakkiz marta kam bo'lishi kerak edi. Ko'rinishidan yo'ldoshlarda magnit maydonning variatsiyalanishi, «sitrosti» okeanlarining sho'rligi, Yer okeanlarining sho'rligiga (37,5 ‰) yaqinligi bilan aniqlanadi. Yevropada sirtosti okeanlarining mavjudligi yigirma yillardan buyon munozaralarga sabab bo'lmoqda.

I.18– rasm.
Yevropa sirtidagi dars ketgan va qo'porilgan Yerlar.

Yo'ldoshda akkretsion, radiogen va issiqlikning oqib kelishi manbalari ichki qatlamlarning suyuqliklarga ega bo'lishi va tashqi qatlamdagi qalinligi 100 km ga etadigan suvning sirtyaqin qatlamining shakllanishiga imkon yaratuvchi, yetarli darajada kuchlidir.



I.19– rasm.
Qadimda erigan muz, Yevropa sirtiga otilib chiqib, uning sirtining keng maydonlarini suv bosgan bo'lishi xam mumkin.

Ganimed – Yupiterning va butun Quyosh sistemasining eng katta yo'ldoshi bo'lib, uning radiusi 2631 km. O'zining diametri bo'yicha u Merkuriydan xam katta. Ammo Ganimedning o'rtacha zichligi bor yo'g'i 1,93 g/sm^3: yo'ldoshda muz juda ko'p.

I.20- rasm
Ganimed.

Suratlardagi tashqi ko'rinishi bilan Ganimed Oyni eslatadi, lekin u ancha katta. Ganimed sirtining 40% qadimiy, quvvatli muzli qobiqdan iborat. Ganimed siritdagi to'qnashish natijasida hosil bo'lgan kraterlar, 3,5 milliard yillar avval yo'ldoshning yaralishi davrida hosil bo'lgan. Yosh kraterlar och rangda ko'rinadilar. Ganimed qobig'i muz aralashmasi va to'q rangdagi tog' jinslaridan tashkil topgan.

Kallistoning o'lchami taxminan Merkuriy bilan teng – kattaligi bo'yicha Ganimel va Titandan keyingi uchinchi o'rinda turadi. Uning diametri 4800 km, zichligi esa □= 1,83 g/sm^3. Kollistoda suvli muz 60% ni tashkil etadi. Kallisto sirtida kuchlanishi 750 mTl bo'lgan o'zining magnit maydoni topilgan. Shuning uchun silikatli qobiq ostida metall yadro mavjud, deb taxmin qilinmoqda.



I.21– rasm. Kallisto.



I.22-rasm
Suratning chap qismida gigant meteorit urilishi natijasida hosil bo'lgan Valgallning kontsentrik dars ketgan sistemasini ko'rish mumkin. Uning diametri

300 km dan ortadi.

Xuddi Ganimedniki sngari, och rangdagi kraterlar – keyinroq hosil bo'lgan tuzilmalardir. Kollisto sirtining yoshi milliardlab yillar bilan o'lchanadi; unda vulqonlar xarakati deyarli kuzatilmaydi. Agar Yevropada suvning miqdori mavjudligi xaqiqat deb hisoblansa, unda Kollistoda uning mavjud emasligi xaqiqatga yaqinroqdir. Lekin, akkretsion va radiogen issiqlik manbalari uchun kerak bo'lgan miqdorga yaqin bo'lsada, «Galileo»ning bortidan olib borilgan kuzatishlar, ushba sayyora metal qobiq va muzdan iborat ekanligini ko'rsatmoqda.

I.2. Suvdan xam yengil halqali sayyora

Agar teleskopdan uni kuzatilsa, yoki «Voyadjerdan» olingan suratlarga qaralsa, Saturn eng chiroyli sayyora bo'lsa kerak degan xulosaga kelinadi. Saturnning go'zal xalqalarini Quyosh sistemasidagi xech bir ob'ekt bilan adashtirib bo'lmaydi.



I.23– rasm.
Saturn. Xabbl nomli teleskopdan olingan muratlar.

Ushbu sayyora qadim zamonlardan beri ma'lum bo'lgan. Saturnning maksimal yulduziy kattaligi $+0,7^{m}$. Ushbu sayyora – bizning yulduzli osmonimizdagi eng yorqin ob'ektlardan biridir. Saturnning xalqalari Yerdan turib, uncha katta bo'lmagan teleskop orqali ham ko'rinadi. Ular Sayyora atrofida

aylanadigan, ming-minglab unchalik katta bo'lmagan qattiq jismlar, tosh va muzlarning qoldiqlaridir.

I.24– rasm
Saturn xalqalarining Yerdan turib ko'rinishi.

Orbitasining katta yarim o'qi 9,584 a.b. ni tashkil etadi, aylanish davri esa 29,666 yilga teng. Orbitaning ekstsentrisiteti e = 0,057 bo'lib, ekliptikaga og'maligi 2^0 29'. O'z o'qi atrofida aylanish davri - yulduz sutkasida – 10 soat 14 minutni (30^0 kenglamada) tashkil etadi. Saturn qattiq jism bo'lmay, gaz va suyuqdikdan tashkil topgani uchun, uning ekvatori qutblariga nisbatan tezroq aylanadi: qutblarda bitta to'liq aylanish davrt taxminan 26 minutga sekinroq kechadi. O'qi atrofida o'rtacha aylanish davri - 10 soat 40 minutga teng.

Markazga intilma kuch ta'siri tufayli Saturn sezilarli darajada siqiq. Uning siqiqligi 10% ni tashkil etadi.

I.25- rasm

Saturn suvda suzib yurishi mumkin edi.

Saturnning massasi $M_{♄} = 95{,}159\ M_{⊕}$ $= 5{,}6850 \cdot 10^{26}$ kg ga teng, radiusi Yer radiusidan birmuncha ko'proq: $R_{♄} = 9{,}45\ R_{⊕} = 60\ 268$ km.

Zichligi $\rho_{♄} = 0{,}70$ g/sm^3.

Saturn bir ajoyib xususiyatga ega: u - Quyosh sistemasidagi yagona bo'lgan, urtacha zichligi suv zichligidan kam bo'lgan (bir kub metrga 700kg) sayyoradir. Agar ulkan okeanni yaratish imkoni bo'lganda edi, Saturn unda suzib yurgan bo'lar edi.

Bulutli qoplam sirti balandligida erkin tushish tezlanishi $g_{♄} = 9{,}44$ m/s^2 ni tashkil etadi. Al'bedosi 0,47.

Saturnning atmosferasi deyarli butunlay vodorod, geliy va azotdan iborat. «Voyadjer-1» KAS Saturn atmosferaning yuqori qatlamining 7 % xajmi – geliy (Yupiterdagi 11% bilan solishtirilganda), qolgan xammasi vodoroddan iborat ekanini aniqladi. Saturn xam xuddi Yupiter sayyorasi singari deb taxmin qilingani tufayli, Saturndagi geliyning miqdori Yupiterniki va Quyoshniki singari deb taxmin qilinmoqda.

Atmosferaning yuqori qatlmida ushbu elementning etishmasligi, birmuncha og’g’irroq bo’lgan geliy, Saturn yadrosiga sekin tushmoqda, shu sababli issiqlik energiyasi kosmosga tarqalmoqda. Atmosferaning yuqori qismida ammiak bulutlari Yupiternikiga qaraganda quvvatliroq, shuning uchun Saturndagi polosalar u darajada kuyuk emas. Saturndagi minimal xarorat, u «Voyadjer-2» yordamida radioto’lqinlarda o’lchangan bo’lib, 82 K ga teng. Atmosferaga kirib borgan sari xarorat ortib boradi. Atmosferadan pastroqda suyuq molekulyar vodorod okeanlari keng tarqalgan. 30 000 km chuqurlik yaqinida vodorod metall holatga o’tadi (bosim 3 million atmosferaga etadi). Metallning xarakati kuchli magnit maylonni hosil qiladi. Sayyoraning markazida massiv temir-tosh yadro joylashgan.



I.26– rasm.Saturnning ichki tuzilishi.



I.27- rasm. Atmosfera xarorati.



I.28- rasm

Atmosferaning kimyoviy tarkibi

Saturnda juda kuchli shamollar bo'lib turadi. «Voyadjer-2» ularning tezligini o'lchab, ekvatorda - 500 m/s ekanini ko'rsatdi. Ko'pincha shamol sharqiy yo'nalishda esadi (eslatib o'tamiz, Saturn xam boshqa qupgina sayyoralar singari g'arbdan sharqqa tomon aylanadi). Shamolning kuchi ekvatordan uzoqlashgan sari kamayib boradi. Undan tashqari «Voyadjera-2» shimoliy va janubiy yarimsharlarda, shamol ekvatorga nisbatan simmetrik ekanini ko'rsatdi. Simmetrik oqim, atmosferaning ko'rinadigan qatlami ostida o'zaro bog'liq, degan taxminlar xam mavjud.



I.29 – rasm. Saturndagi shamol tezligining kenglamaga bog'liqligi.

Saturn atmosferasida xam Yupiterning mashxur qizil dog'i singari katta bo'lmasa xam, kuchli bo'ronlar tez-tez kuzatiladi. SHuningdek, Saturnda o'lchami 1250 km bo'lgan dog topilgan. Saturnning magnit maydoni Yupiternikidan birmuncha kuchsizroq. Ko'rinish qismidagi bulutlar ustidagi magnit maydonning kuchlanganligi ekvatorda 0,2 Gs (Yer sirti ustida magnit maydon 0,35 Gs ga teng). Saturnning magnitosferasi Yupiternikidan farq qiladi. Saturnda aylanish o'qi dipol o'qi bilan ustma-ust tushadi. Ba'zi zaryadlangan zarralar, qutbdan-qutbga xarakatlanishi davrida, xalqalar sistemasidan o'tadilar va ularning ba'zilari u yerdagi chang va muzlar tomonidan yutilib qoladi. Shuning uchun Saturnning magnitosfera sohasi juda ham bo'sh – u yerda zaryadlangan zarralar juda oz miqdorda.



I.30– rasm. Sayyoraning magnitosferasi

Saturn yo'ldoshlari. Saturn yo'ldoshlari sistemasi ancha murakkab. 30 ta yo'ldoshlari ma'lum, ular jadvalga kiritilgan. Shulardan 12 tasi oxirgi bir necha yillar ichida ochilgan.



I.31- rasm
Saturn yo'ldoshlari sistemasi.



I.32-Saturnning tashqi yo'doshlari

Saturn yo'ldoshlarini, shuningdek boshqa gigant sayyoralar yo'ldoshlarini ikki guruhga ajratish mumkin - bular regulyar va irregulyar.

Nomi	Yorqinligi, *m*	Radiusi orbitalar, ming. km	Saturn atrofida aylanish davri sut.	Radius, km	Massa, kg	Ochilgan yili
Pan	20	133,58	0,5750	10	$2{,}7\cdot10^{17}$	1990
Atlas	18,0	137,67	0,6019	14×20	$2{,}2\cdot10^{17}$	1980
Prometey	15,8	139,35	0,6130	145×85×62	$2{,}7\cdot10^{17}$	1980
Pandora	16,5	141,70	0,6285	114×84×62	$2{,}2\cdot10^{17}$	1980
Epimetiy	15,7	151,42	0,6942	115×108×98	$5{,}7\cdot10^{17}$	1966
YAnus	14,5	151,47	0,6945	89	$2{,}01\cdot10^{18}$	1966
Mimas	12,9	185,52	0,94242	196	$3{,}80\cdot10^{19}$	1789
Entselad	11,7	238,02	1,37022	260	$8{,}4\cdot10^{19}$	1789
Tefiya	10,2	294,66	1,8878	530	$7{,}55\cdot10^{20}$	1684
Telesto	18,7	294,66	1,8878	34×15×36	$6{,}0\cdot10^{15}$	1980
Kalipso	19,0	294,66	1,8878	34×13×22	$4{,}0\cdot10^{15}$	1980
Diona	10,4	377,40	2,7369	560	$1{,}1\cdot10^{21}$	1884
Elena	18,4	377,40	2,7369	36×16×30	$1{,}4\cdot10^{23}$	1980
Reya	9,4	527,04	4,5175	765	$2{,}5\cdot10^{21}$	1672
Titan	8,3	1221,83	15,945	2575	$1{,}4\cdot10^{23}$	1655
Giperion	14,2	1481,1	21,2766	410×260×220	$1{,}8\cdot10^{19}$	1848
YApet	12,0	3561,3	79,3302	730	$1{,}9\cdot10^{21}$	1671

Feba	16,5	12 952	-551,48	110	$4{,}0 \cdot 10^{18}$	1898

Nomi	YOrqinligi *m*	Orbita radiusi a.b.	Saturn atrofida aylanish davri yil.	Radius, km	Massa, kg	Orbita lar
S/2000 S 1	23	0,156	3,63	10		2000
S/2000 S 2	23	0,100	1,87	12		2000
S/2000 S 3	24	0,111	2,2	22,5		2000
S/2000 S 4	24	0,120	2,46	8		2000
S/2000 S 5	24	0,076	1,24	8,5		2000
S/2000 S 6	24	0,076	1,24	7		2000
S/2000 S 7	24	0,136	2,95	3,5		2000
S/2000 S 8	24	0,103	1,95	4		2000
S/2000 S 9	23	0,123	2,54	3,5		2000
S/2000 S 10	24	0,121	2,48	5		2000
S/2000 S 11	24	0,119	2,43	15		2000
S/2000 S 12	24	0,119	2,41	3,5		2000

Saturn yo'ldoshlari jadvali

Regulyar yo'ldoshlar sayyoraning ekvatorial tekisligi yaqinida, aylanaga yaqin bo'lgan orbita bo'ylab xarakatlanadilar. Barcha regulyar yo'ldoshlar sayyora xarakati yo'nalishi bo'ylab bir yo'nalishda xarakatlanadilar. Ushbu holat sayyoraning shakllanishi davrida, ular gaz-chang bulutlaridan vujudga kelganidan darak beradi. Ulardan farqli ravishda irregulyar yo'ldoshlar sayyoradan uzoqda, xaotik orbitalar bo'ylab xarakatlanadilar, ushbu holat mazkur yo'ldoshlar shu yaqin davrlar ichida, sayyora atrofida uchib o'tayotgan asteroidlar yoki kometa yadrolarini Saturn o'zlashtirib olganidan darak beradi. Xozirgi vaqtda yo'ldoshlarning orbita parametrlari va o'lchamlari aniqlanmoqda. Yo'ldoshlarning ko'pchiligi muzdan tarkib topgan: ularning zichligi 1400 kg/m^3 dan oshmaydi. Nisbatan kattaroq yo'ldoshlarda yadrolar xam shakllanmoqda. Deyarli barcha yo'ldoshlar sayyoraga bir tomoni bilan qaragan.

I.33- rasm
Mimas. To’qnashishdan hosil bo’lgan kraterning diametri 130 km atrofida

I.34- rasm.
Entselad –Quyosh sistemasidagi eng yorqin jism. (al’bedosi 1 ga yaqin).



I.35- rasm
Tefiya Odissey krateri (400 km, yo’ldoshning 2/5 diametraga teng.) bilan mashxur va 3 ming km ga teng bo’lgan gigant kan’lnlari mavjud.



I.36- rasm
Diona. Ulkan kraterining o’lchami yonlamasiga 100 km atrofida

Qora Giperion o’z o’qi atrofida doimiy aylanish tezligiga ega emas: u bir oy davrida o’n foizga o’zgaradi.

Saturn xalqalari. Saturnning xalqalarini Yerdan turib unchalik katta bo'lmagan teleskop orqali ko'rish mumkin. Ular sayyora atrofida xarakatlanuvchi minglab mayda qattiq zarralar va muzli toshlardan tashkil topgan.



I.37– rasm. Saturn xalqalari. «Voyadjerdan» turib olingan surat.

A,V va S deb ataluvchi uchta asosiy xalqalar mavjud. Ular Yerdan turib ortiqcha qiyinchiliklarsiz ajratiladi. Bulardan tashqari yana nisbatan kuchsizroq D, E, F halqalar xam mavjud. Yaqinlashgan sari xalqalarning juda xam ko'p ekanligi ko'rinadi. Xalqalar orasida tirqishlar mavjud bo'lib, bu Yerda zarralar uchramaydi. Yerdan turib oddiy maktab teleskopi yordamida ko'rinadigan (A va V xalqalar orasidagi) tirqish ***Kassini tirqishi*** deb ataladi. Tiniq qorong'u tunda xira ko'rinadiganlarini ham kuzatish mumkin. Xalqalarning ichki qismlari tashqi qismiga nisbatan tezroq aylanadi.



I.38- rasm
Xalqalarning tuzilish sxemasi.

Xalqalarning kengligi 400 ming km. lekin qalinligi bo’yicha ular bor yo’g’i bir necha o’n metrga etadi. Xalqalar orasidan xiraroq bo’lsada, yulduzlarni ko’rish mumkin. Barcha xalqalar turli o’lchamlardagi: chang o’lchamidan bir necha metrgacha bo’lgan alohida - alohida muz bo’laklaridan iborat. Ushbu zarrachalar deyarli bir xil tezlikda (10 km/s atrofida) xarakatlanadilar, ba’zida bir birlari bilan to’qnashadilar.

Xalqalarning tekisligi orbita tekisligiga 20^0 burchak ostida og’gan. SHuning uchun yil davomida biz ularni maksimal keng darajada ko’ramiz, shundan keyin ularning ko’rinish kengligi kamayadi va taxminan 15 yildan so’ng ular kuchsiz ajratiladigan chiziqqa aylanadilar.



I.39– rasm
Xalqalarning tashqi ko’rinishi yildan yilga o’zgarib turadi. Ushbu holat xalqalar tekisligining sayyora orbitasining tekisligiga og’maligi bilan tushuntiriladi.

1610 yilda Galileo Galiley birinchi bo’lib teleskopda Saturn xalqalarini ko’rdi, ammo buning nima ekanini tushunmadi, shuning uchun, Saturn qismlardan tashkil topgan deb yozib quydi.

Oradan yarim asr o’tgach, Xristian Gyuygens Saturnda xalqalarning mavjudligi xaqida ma’lum qildi, 1675 yilda esa Kassini xalqalar orasida tirqish (kora oralik) mavjudligini aniqladi.

XIX asrning oxiriga kelib, Jan Kassinining Saturn xalqasi meteor tuzulmali degan g'oyani ilgari surdi, 1893 yilga kelib esa ushbu g'oya kuzatuvlar natijasida o'z tasdig'ini topdi.

XX asr davomida sayyoralar xalqalari xaqidagi ma'lumotlar doimiy ravishda yangilanib borildi: o'lchamlarning qiymatlari va xalqalardagi zarralarning kontsentratsiyasi olindi, spektral analiz yordamida xalqa muz zarralaridan tashkil topgani aniqlandi, Saturn xalqalarining yorqinligining azimutal o'zgarish holati ochildi. 1977 yilning 10 martida Uranning ingichka bir-biridan qolib ketayotgan qop-qora xalqalari topildi. Oradan ikki yil o'tgach 1979 yilning 4 martida «Voyadjer-1» sayyoralararo apparati Saturn atrofida ham toshli xalqalar borligini aniqladi. O'n yildan keyin esa Neptunnig xalqalari aniqlandi.

Sayyoralar xalqalari gigant-sayyoralar sistemasida qonuniy holat bo'lib chiqdi.

I.3. Uran- ko'k shar

Qachonki Yerni ko'k deb atalsa, bir oz yumshoqroq, erkalatib aytilgandek. Sayyoralar orasida xaqiqiy ko'k bo'lib, Uran chiqdi. Uran – yangi tarixda ochilgan eng birinchi sayyora bo'lib, u 1781 yilning 13 martida, o'zining teleskopida osmonni kuzatayotgan vaqtida bexosdan Vil'yam Gershel tomonidan ochilgan. Gershel buni kometa deb o'ylab, darxol Grinvichga xabar beradi. Lekin bu yangi sayyora ekanligi tez kunlarda ma'lum bo'ldi. Ma'lum bo'lishicha, Uranni avvalari xam kuzatishgan, lekin uni yulduz deb tasavvur qilingan. U xaqidagi eng avvalgi yozuvlar, 1690 yilda Jon Flemstid, uni Savrning 34 nchi yulduzi deb katalogga qayd qilgan yili aniqlangan edi. Gershel sayyorani o'zining raxnamosi, Angliya xukmdori

I.40-rasm
Uran «Voyadjera-2» dan turib olingan surati.
Atmosferada hech qandan detallarni ajratib bo'lmaydi

Georg III sharafiga «Georgium Sidus» (Georg sayyorasi) deb atadi. Boshqa astronomlar xam Gershel sayyorasi deb atagan edilar. «Uran» nomini esa, odatdagidek antik mifalogiyasidan olingan bo'lib, uni Bode vaqtinchalik nomlagan edi, 1850 yilga kelib bu nom tasdiqlandi.



I.41- rasm
Yerdan turib kuzatilgan teleskoplar orqali Uran aynan shunday ko'rinishga ega.

Qurollanmagan ko'z bilan tiniq osmonda Uranni zo'rg'a ko'rish mumkin, uni binokl yordamida (agar siz osmoning qaysi tomoniga qarashni aniq bilsangiz) osongina aniqlash mumkin. Maksimal yulduziy kattaligi m = +5,5.

3,7" burchak ostida joylashgan kichik diskni uncha katta bo'lmagan astronomik teleskop ko'rsatadi. Sayyoraning Quyoshdan o'rtacha uzoqligi 19,187 a.b., orbita bo'ylab aylanish davri - 84,048 yil. Orbitaning ekstsentrisiteti 0,0463 ni tashkil etadi, orbita tekisligining ekliptika tekisligiga og'maligi 0^0 46'23", orbita bo'ylab o'rtacha aylanish tekisligi 6,8 km/s.

Uranda yulduz sutkasi 17 soat 14 minut davom etadi. Uran, «yonlamasiga yotib» aylanadi. Ekvatorning orbita tekisligiga og'maligini ($97^0 55'$), xuddi boshqa sayyoralar kabi, burilma qoidasiga bo'ysungani kabi 90^0 deb xisoblashga to'g'ri keladi.



I.42- rasm
Uran yonmachasiga yotib aylanadi.

Ko'pchilik sayyoralarda aylanish o'qi ekliptika tekisligiga deyarli perependikulyar, lekin Uranniki deyarli parallel ravishda joylashgan.

Urannig yotgan holda aylanishining sababi xali ma'lum emas.

Lekin xaqiqatda Uranning qaysi qutbi shimoliy ekanligi xaqida tortishuvlar bormoqda. Quyosh sistemasining kosmogoniyasi uchun Urannig aylanishini o'rganish juda katta axamiyatga ega. Agar Uran yon tomoni bilan yotib shakllangan bo'lsa, unda bu bizning quyosh sistemamizning yaralishi xaqidagi fikrlarning to'g'riligi bilan mos kelmaydi. To'g'ri, xozirda Uraninng bunday holati – uning boshlang'ich shakllanishi davrida katta osmon jismi, jumladan asteroid bilan, to'qnashishi tufayli hosil bo'lgan degan fikrlar xam yo'q emas. SHu kabi muammo Venerada xam mavjud, u yonlamasiga yotmasa xam, uning teskari yo'nalishda aylanish muammosi o'rganilmoqda.

Uranning massasi Yer massasidan 14,5 marta ko'p. Uning radiusi juda xam katta bo'lib 25 ming km Yer radiusidan 4 marta katta. Uranning zichligi $\rho_{\text{♅}} = 1{,}30$ g/sm^3.

Sayyora juda siqiq. Uning ekvatorial radiusi 25 559 km, qutbiy radiusi esa 25 270 km ga teng. Sayyoraning bulutli qatlam ustiga mos keladigan balandlikda erkin tushish tezlanishi $g_{\text{♅}} = 9{,}67$ m/s^2.

«Voyadjer-2» dan olingan ma’lumotlarga ko’ra Uran uncha katta bo’lmagan qattiq temir-toshli Yadroga ega bo’lib, Yadrodan keyin, keskin ravishda quyuq atmosfera qatlami boshlanadi. Ko’rinishidan Uranda xech qanday okeanlar mavjud emas. Xozirda sayyoraning bunday tuzilishini ikki qatlamli model deb ataladi. Yadroda temperatura 7000 K ga yetadi, bosim esa – 6 million atmosfera. Uranning effektiv temperaturasi 59 K bo’lib, Quyoshdan oladigan iliqlikdan bir ozgina oshadi. Shuningdek, Uran deyarli ichki energiya manbaiga ega emas. Taxminlarga ko’ra, Quyosh sistemasining shakllanishidan keyinrnoq Uranning boshqa jism bilan to’qnashishi sodir bo’lgan. Ushbu to’qnashish oqibatida Uran yon tomoniga to’ntarilib qolgan degan taxminlar xam yo’q emas. Sayyoraning tug’ilishi paytidagi massasining yetarli emasligi, uning o’z atrofida vodorod va geliyni ko’p miqdorda saqlab qola olmagan, yoki aslida bu erning o’zida gazning miqdori oz bo’lgan. Ko’rinib turibdiki, Uranning jumboqlariga javob topilsa, Quyosh sistemasining keyingi taqdiri xaqida muhim ma’lumotlar olish mumkin ekan.



I.43-rasm.
Uranning ichki tuzilishi.



I.44– rasm.
Uran atmosferasining kimyoviy tarkibi.

Uranda atmosfera juda quyuq, qalinligi 8000 km dan kam emas. Uranning atmosferasi taxminan 83% vodoroddan, 15% geliydan va 2 % metandan tashkil topgan. metan, atsetilin va boshqa uglevodorodlar sayyora atmosferasida, Yupiter va Saturnning atmosferasidagidan ko'ra ancha ko'p. Aynan metan qizil nurlarni yaxshi yutadi, Shuning uchun Uran ko'k bo'lib ko'rinadi. Boshqa gazli sayyoralardagi singari, Uranda xam juda tez xarakatlanadigan bulutlar polosalari bor. Ammo ularni ajratish juda qiyin, Shuning uchun faqatgina katta ajrata olish kuchiga ega bo'lgan teleskoplar orqaligina olingan fotosuratlarda ko'rish mumkin. Xabbl kosmik teleskopidan turib olingan oxirgi kuzatishlar katta bulutlarni ko'rish imkonini berdi. Bu holat fasllar effekti bilan bog'liq degan taxminlarga olib kelmoqda, chunki, sayyoraning yarim shari yil bo'yi Quyoshdan berkinib turadi va Uran Quyoshdan Yerga karaganda 370 marta kam issiqlik oladi, Shuning uchun u Yerda yozda xam jazirama issiq bo'lmaydi.

Yerda shamol bulutlarni qaysi tarafga qarab eltsa, Uranning o'rta kengliklarida xam Shu Yerga qarab eltadi. Ushbu shamollar 40 dan 160 m/s tezlik bilan esadi, Yerda tez bo'ladigan oqimlar 50 m/s ga teng.

Uranda kunduzgi yoritilganlik, Yer yuzida Quyosh botganidan keyingi oqshom singari bo'ladi. Atmosfera bosimi 0,1 bar darajada minimal temperatura 53 K kuzatilgan. Yuqori va pastki qismlarda temperatura ko'tariladi. Bosim 2,3 bar darajasida atmosfera temperaturasi 100 K ga yetadi. Urandagi ***magnit maydon*** xuddi Yerniki singari. Bulutli qatlamlar balandligi darajasida magnit maydon 0,23Gs ga teng. Lekin ushbu magnit maydon konfiguratsiyasi juda murakkab. Agar dipol o'qini markazdan ridiusning 1/3 qismiga siljitib va aylanish o'kiga 60^0 ga og'dirsak, juda yaqin taxminlar bilan uni dipolli deb hisoblash mumkin. Uranda kompas geografik qutbni ko'rsatmaydi.



I.45- rasm
Uran magnitosferasi.

Shekspir kanizaklari. Kuzatishlarning qiyinligiga qaramasdan, o'tgan asrlar astronomlari Uranning deyarli barcha gigant yo'ldoshlarini ochdilar. Yo'ldoshlar sistemasi sayyoraning ekvatorial tekisligida, ya'ni uning orbita tekisligiga perependikulyar ravishda yotadi. Ichki 10 ta oylari - o'lchamlari bo'yicha kichikdir. 1986 yilda «Voyadjer-2» KAS uzatgan suratlarda 1986U10 yo'ldoshi xozircha shaxsiy nomga ega emas. Uni xam xuddi Uranning boshqa yo'ldoshlari singari Shekspir p'esalari qaxramonlaridan birining nomi bilan atasalar kerak.



I.46- rasm. Uran yo'ldoshlari sistemasi .

Nomi	Yorqinligi, *m*	Orbita radiusi, ming km	Uran atrofida aylanish davri davri, sut.	Radius, km	Massa, kg
Kordeliya	24	49,77	0,33503	13	$1{,}7\cdot10^{16}$
Ofeliya	24	53,79	0,37640	≈ 15	$2{,}6\cdot10^{16}$
Bianka	23	59,17	0,43458	≈ 21	$7\cdot10^{16}$
Kressida	22	61,78	0,46357	≈ 31	$2{,}6\cdot10^{17}$
Dezdemona	22	62,68	0,47365	≈ 37	$1{,}7\cdot10^{17}$
Djul'etta	22	64,35	0,49307	≈ 42	$4{,}3\cdot10^{17}$
Portsiya	21	66,09	0,5132	≈ 54	$1\cdot10^{18}$
Rozalinda	22	69,94	0,5585	≈ 27	$1{,}5\cdot10^{17}$
Belinda	22	75,26	0,6235	≈ 33	$2{,}5\cdot10^{17}$
Pak	20	86,01	0,7618	77	$5\cdot10^{17}$
Miranda	16,5	129,39	1,4135	472	$6{,}3\cdot10^{19}$
Ariel'	14,4	191,02	2,5204	579	$1{,}27\cdot10^{21}$
Umbriel'	15,3	266,30	4,1442	585	$1{,}33\cdot10^{21}$
Titaniya	14,0	435,91	8,7059	790	$3{,}49\cdot10^{21}$
Oberon	14,2	583,52	13,463	760	$3{,}03\cdot10^{21}$
Kaliban	21	7169	-579	≈ 60	
Sikoraksa	21	12214	-1289	≈ 120	
1986U10	24	76,4	0,638	≈ 20	
Setebos	23	17810	-2271	≈ 20	
Stefano	24	7920	-674	≈ 20	
Prospero	22	16670	-2057	≈ 40	



I.47- rasm. Kichkina Mirandada churligi bir nesa kilometrga yetadigan gigant kan'onlar aniqlandi.



I.48- rasm. Miranda va Uran.

I.49– rasm.
Ariel sirti mayda kraterlar va vodiylar µamda qatlamlar bilan qoplangan



I.50– rasm.

Umbriel'. Kinishidan yuqoridagi yorqin µalqa to'qnashish natijasida µosil bo'lgan kraterdagi muz qoplamni bildirsa kerak

I.51- rasm.
Titaniya sirtida ko'p miqdordagi kraterlar aniqlandi. Ba'zi kon'yonlarning devorlari muz bilan qoplanganligi tufayli yorqin bo'lib ko'rinadi

I.52– rasm.
Oberonning qadimiy muzli sirt qatlami kraterlar bilan o'yib tashlangan

Urannig yo'ldoshlari ***Oberon*** va ***Titaniya*** bir – birlariga juda o'xshaydilar. Ularning radiuslari Oyning radiusidan taxminan ikki marta kichik. Ikkala oylarning sirtlari eski meteorit kraterlari va qadimiy vuqonlardan darak beruvchi, tektonik vayronagarchiliklar to'rlari bilan qoplanganlar.

Uran xalqalari 1977 yilda Uran yorqin yulduzni qoplagan vaqtida behosdan ochilgan. Shu vaqtda yulduz, uni Uran to'liq qoplashiga qadar 9 marta va undan so'ng yana 9 marta uzgartirdi. Shunday qilib, to'qqizta zich, yupqa va bir biridan uzoqda qolib ketuvchi Uraning qora xalkalari ochildi.

Ularnnng barchasining kalinligi 1–10 km, eng keng tashqi xalqaning o'lchami 96 km ga teng. Uranning xalqalari deyarli qop-qora: al'bedosi 0,03 ga teng. Ular yonlamasiga bir necha metrga yetadigan toshli zarralardan iborat. Xar bir xalqa xuddi bitta yaxlit singari xarakatlanadi. Xalqalarning barqarorlik muammosi xali xam echilmay qolmoqda.



I.53- rasm.
Uran xalqalari kattalashtirilgan ko'rinishda.

Yo'ldoshlar va xalqalar

Nomi	Yorqinligi, *m*	Orbita radiusi, ming. km	Neptun arofida aylanish davri, "-" sut	Radius, km	Massa, kg	Ochilgan yili
Nayada	25	48,23	0,2944	29 km	$1{,}4\cdot10^{17}$	1989
Talassa	24	50,07	0,3115	40 km	$4\cdot10^{17}$	1989
Despina	23	52,53	0,3347	74 km	$2{,}1\cdot10^{17}$	1989
Galateya	23	61,95	0,4287	78 km	$3{,}1\cdot10^{18}$	1989
Larissa	21	73,55	0,5547	208×178	$6\cdot10^{18}$	1981
Protey	20	117,65	1,1223	436×416×402	$6\cdot10^{19}$	1989
Triton	13,6	354,76	-5,877	1350	$2{,}14\cdot10^{22}$	1846
Nereida	18,7	5 513,4	360,14	170	$3{,}1\cdot10^{19}$	1949

I.54- jadval



I.55– rasm.
Neptunning eng katta yo'ldoshi – Triton.

1846 yilda Uil'yam Lassel tomonidan ochilgan Triton yo'ldoshi Oydan xam katta bo'lib, u Neptun atrofida teskari yo'nalish bo'ylab xarakatlanadi, Shuning uchun uni olimlar ***Koyper belbog'idan*** Neptun tomonidan ishg'ol qilib olingan degan xulosaga kelinmoqda.

Tritonda Neptun yo'ldoshlari sistemasidagi deyarli barcha massa jamlangan. Uning zichligi juda yuqori bo'lib, 2 g/sm^3 ga yetadi.



I.56– rasm.
Olimlarning fikricha, ushbu o'lchamlari 200X400 km li vodiy «muzdi» vulqonning otilishi natijasida vujudga kelgan.



I.57- rasm
Tritondagi suvli geyzer

Tritonda cho'qqilar, kraterlar, vulqonsifat qora polosalar aniqlangan. «Voyadjer-2» Tritonda qizil muzning suratini va ekvatorda muzlab qolgan metandan iborat bo'lgan ko'k muzning suratini oldi. Janubiy qutb qalpog'i azotli muzdan tashkil topgan bo'lib, uning ichidan bir necha kilometrga geyzerlar otilib chiqib turadi. Yo'ldoshning sirti yorug' bo'lib, tushayotgan Quyosh nurining 80% ni qaytaradi. Triton siyrak azotli atmosferaga ega (sirtidagi bosim 10 mm sim. ust.). Tritonda temperatura -235^0S.



I.58- rasm
Neptun yo'ldoshlari sistemasi.

Neptunnig yo’ldoshi Nereida 1949 yilda Jerard Koyper tomonidan ochilgan bulib, uning orbita bo’lab aylanish ekstsentrisiteti eng yuqori bo’lib, 0,75 ga teng.



I.59– rasm.
Arka-xalqalar.

Neptun atrofida arkalar ko’rinishidagi xalqalar aniqlangan. Ushbu xalqalar xaqidagi birinchi ma’lumotlar 1995 yilda olingan. Xisoblashlar Ushbu arkalar epitonlar deb atalgan murakkab bo’ronlar (vixr) ekanligini ko’rsatadi.

II BOB. "GIGANT SAYYORALAR FIZIKASI" MAVZUSINI ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI MUHITIDA O'QITISH METODIKASI

II.1 Astronomiк ta'limga axborot texnologiyalarini joriy etish yo'llari

Ta'limni компьyuterlashtirish o'qitishning кuchli vositasi, tadqiqot ishlarining ajralmas qismi sifatida maydonga chiqmoqda. Bu esa, fanlarni o'qitishga oid metodiк qo'llanmalarni yaratishni, o'quv jarayonlarni modellashtirish va tadbiq qilishni, yuqori malaкali pedagog va ilmiy кadrlar tajribalarini кeng miqyosda yoyishni, ta'lim berish jarayonida har bir ta'lim oluvchini o'ziga xos xususiyatlariga moslashishni hamda o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirishga ko'maкlashish imкonini beradi.

Bularning barchasini amalga oshirish uchun o'quvchilarning mustaqil ishlashi o'qituvchilarning nazorati ostida, metodiк va texniк yordamiga tayangan holda tashкil qilishni taкomillashtirish zarur.

Har qanday ta'limot shunchaкi ishlab chiqariladigan emas, balкi sermahsul ijodiy xaraкterdagi faoliyat deb tushunilmog'i кeraк.

O'quv faoliyatni rivojlantirishning tuzilmasi bizning tadqiqot ishimizda asosiy quyidagi yondashuv ko'rinishida amalga oshirildi, ya'ni:

1. Ta'limni компьyuterlashtirish.
2. Internet tizimidan samarali foydalanish.
3. Innavatsion pedagogiк texnologiyalarga axborot texnologiyalarini tatbiq etgan holda qo'llash.
4. Nazorat baholashda interfaol testlardan fodalanish

Bizning oldimizga qo'yilgan maqsadlarga ko'ra, astronomiya o'qituvchisini astronomiya fani bo'yicha metodiк tayyorlashda, pedagogiк jarayon tadqiqi ikки xil funкtsiyada, ham ob'eкt, ham sub'eкt sifatida ishtiroк etadi. Jarayonning ob'eкt sifati - oliy o'quv yurtida bo'lajaк fiziка va astronomiya o'qituvchisini astronomiya fani bo'yicha кasbiy tayyorlash metodiкasi bo'lsa, jarayonning sub'eкti sifatiga -

bo’lajaк fiziка va astronomiya o’qituvchisining кasb hunar кollejlari (KXK) va aкademiк litseylarda (AL) astronomiya fanini o’qitish metodiкasini yaratish va qo’llash bilan bog’liq faoliyatini ta’minlaydigan masalalar кiradi. Shu masalalardan кelib chiqqan holda biz aкademiк litseylarda astronomiya o’qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo’llash masalalarin oldimizga vazifa qilib qo’ydiк.

Aкademiк litseylarda astronomiyani o’qitish iккinchi кursdan boshlanadi. Astronomiya fani bir semestrga mo’ljallangan bo’lib, mazкur fan uchun 40 soat ajratilgan. Bundan 34 soati auditoriya soati, 6 soati esa кuzatuvlarga ajratilgan. SHulardan xar bir semestrda haftasiga 2 soatdan mashg’ulotlar uchun ajratilgan. Fan bo’yicha erishilgan bilim, malaка va ko’niкmalar yaкuniy nazorat bilan sinovdan o’тkaziladi.

Astronomiya fani osmon jismlarining haraкatlari, fiziк tabiatlari va ular bilan bog’liq hodisalar bo’yicha ilmiy dunyoqarashni shaкllantirishni maqsad qiladi. U o’quvchilarni astrometriya asoslari, osmon mexaniкasi va nazariy astronomiya elementlari, astrofiziк metodlar, quyosh sistemasi jismlarining fiziк tabiati, yulduzlar astronomiyasining asoslari, ularning masofalari va o’lchamlari, massalari va tempraturalarini topishning usullari bilan tanishtiradi. Osmon jismlari va ularning sistemalarini paydo bo’lishi va evolyutsiyasi haqida xabar beradi Mazкur fan Koinotning yiriк masshtabli struкturasi va bizning Galaктiкamiz, unda quyosh. sistemasi va Erning o’rnini ko’rsatuvchi zamonaviy кosmologiк tushuncha va tasavvurlarni o’quvchilarda shaкllantirishni ham o’z oldiga vazifa qiladi. Jumladan Quyosh sistemasining tuzilishi va jismlarining fiziк tabiatini o’rganish uchun 6 soat vaqt ajratilgan bo’lib, shundan “gigant sayyoralar fiziкasi”ni o’rganish uchun 2 soat vaqt ajratilgan.

Ko’rinib turitbtiкi, aкademiк litseylarda astronomiya soatlari кesкin qisqartirilganligi sababli, bugungi кunda ta’lim berishning samaradorligini oshirish uchun, zamonaviy axborot va кommuniкatsiya texnologiyalarining imкoniyatlaridan to’liq foydalanish orqali yuqori samaradorliкka erishish mumкin. Mashg’ulotlarni кompьyuter texnologiyalari asosida tashкil etish, internet sahifalaridan mavzular bo’yicha sistemalashtirilgan ma’lumotlardan кeng

foydalanish, ta’lim berishda кutilgan natijalarga erishishni ta’minlaydi. Sferiк va amaliy astronomiyaga oid bilimlarini amaliy mashg’ulotlar asosida, astrofiziкaga oid materiallar bo’yicha erishilgan bilimlarni esa laboratoriya va кuzatish mashg’ulotlari asosida mustahкamlash yaxshi natijalar beradi.

SHuningdeк, astronomiк ta’lim, axborot texnologiyalariga muhtoj soha bo’lib, buning bir nechta ob’eктiv va sub’eктiv jihatlari mavjud. Avvalo, u o’quvchilar oddiy, кundaliк hayotda кuzatmaydigan yoкi кuzatsa ham shu darajada seкin va muntazam ro’y beradigan jarayon va hodisalarкi, ularga o’quvchi e’tiborini qaratish va fiкrini ushlab turish qiyin. SHuning uchun ularni an’anaviy holda o’qitish yaxshi samara bermaydi. Masalan, yulduzlar osmonining sutкaviy va yilliк aylanishini va osmon sferasi to’g’risidagi tushunchalarni olayliк. Sutкaviy aylanishni planetariylarda namoyish etiladi, bu o’quvchilarni darsdan tashqari paytda, o’quv masкanidan chetga olib chiqishni taqozo etadi va bunday eкsкursiyalarni butun кurs davomida bir marta, кo’pi bilan iккi marta uyushtirish mumкin. O’qitish jarayonida bu etarli emas.

Astronomiк ta’lim astronomiк кuzatishlar va кo’plab кo’rgazmali materiallardan foydalanishni taqozo etadi. Кo’pchiliк astronomiк кuzatishlar darsdan tashqari paytda, кechqurun bajariladi. Bu birinchidan, mavzu o’qitilayotgan paytda shu mavzuga tegishli кuzatishlarni namoyish etib bo’lmasliк bilan bog’liq bo’lsa, iккinchidan o’quvchilarni кechкi кuzatishlarga jalb etish bilan bog’liq tashкiliy muammolarni кeltirib chiqaradi.

Astronomiya ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning istiqbolli yo’nalishlaridan biri astronomiк hodisalar va jarayonlarni кompьyuterda modellashtirishdir. Masalan, sayyoralarni кuzatishni olayliк. Bu astronomiк кuzatish ishini xohlagan paytda (har кechqurun) tashкil etib bo’lmaydi. Sayyoralar yulduzlar osmonida siljib yuradilar, shuning uchun biror bir sayyora (masalan, Venera) bir necha oy (hafta) кechqurun кo’rinsa, bir necha oy кo’rinmaydi va undan кeyin bir necha oy dovomida ertalab кo’rinadi. Bunday кo’rinishlar fasllar bo’ylab siljib boradi. Bir martta uyushtirilgan кechкi кuzatishda sayyorani yulduzlar osmonida siljib yurishini кuzatish qiyin. Agar astronomiya mashg’ulotlari кech кuz

oylariga rejalashtirilgan bo’lsa, кuzgi кechqurungi osmonda Savr, Orion yulduz turкumlarini кo’rsatish mumкin. Katta Ayiq yulduz turкumini кo’rsatishning imкoni bo’lmaydi. Bir marta uyushtirilgan кuzatishlarda yulduzlar osmonini eslab qolish qiyin.

Astronomiya fanini o’qitishda qo’llash uchun кo’plab dasturiy mahsulotlar yaratilgan bo’lib, bular orasida «Astronomiк кalendarь» (masalan, AstroLab), yulduzlar osmoni xaritasi (masalan, SkyMapPro_7, yoкi internetda joylashtirilgan yulduzlar osmoni xaritasi www.astronet.ru/db/map), yulduzlar osmonining modeli (masalan, SKYGLOBE.3_5, COSMOS_3)ni кo’rsatish mumкin.

Ular har xil dasturiy tillarda yozilgan. Hozirgi zamon eleктron o’quv nashri bu dasturiy mahsulotlarni birgaliкda qo’llashni taqozo etadi. Bu eleктron o’quv nashr yaratuvchisidan qator dasturiy vositalarni qo’llay bilishni talab etadi va u oddiy pedagog uchun og’ir masala, chunкi pedagog bunday dasturiy mahsulotni ham buyurtmachisi, ham yaratuvchisidir. Bu ta’lim jarayonini axboriy ta’minlash uchun uni tashкiliy ta’minlashni ham taqozo etadi.

Ta’lim berishning o’ziga xos yangi texnologiyasi ta’lim berishning umumiy nazariyasi bilan uning amaliy tadbig’i orasidagi bog’lov bo’g’inidir. Shu asosida «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» da pedagogiк texnologiyaga кatta e’tibor berilgan. Shuning asosida o’quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatlarini rivojlantirish omili sifatida кompьyuterdan foydalanish pedagogiк texnologiyaning ta’lim beruvchi dasturlari orqali amalga oshiriladi. Shu bois, bunday dasturlarni loyihalashning psixologiк-pedagogiк muammolarining alohida guruhini tashкil qiladi. Ta’lim jarayonida кompьyuterdan samarali foydalanish uchun mazкur muammolarni hal qilish lozim.

II.2. "Gigant sayyoralar fizikasi" mavzusini axborot texnologiyalaridan foydalanib o'qitish metodikasi

O'quv-tarbiyaviy jarayonni taxlil qilish natijasida astronomiya o'qitish metodikasining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- o'quv muassasalarida astronomiya o'qitishning maqsadlarini asoslash, tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatib berish;
- astronomiya kursi mazmuni va tuzilishini aniqlash va uni takomillashtirib borish;
- o'qitishning eng samarali metodlari va usullarini ishlab chiqish, tekshirish va amaliyotda qo'llash, o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish hamda astronomiyadan o'quv jihozlari va qurollarini qo'llash.

Boshqacha qilib aytganda, astronomiya o'qitish metodikasi nima uchun o'qitish, nimani o'qitish va qanday o'qitish kerak, degan masalalarni hal etishdan iboratdir.

Astronomiya o'qitishning asosiy vazifasi bu astronomiya o'qitish nazariyasini takomillashtirish, o'qitish jarayonining hamda astronomiyani o'zlashtirishning eng muhim qonuniyatlarini o'rganish, astronomiya o'qitish jarayonida maktab, litsey va kollej o'quvchilarini tarbiyalash va rivojlantirishdir.

Astronomiya o'qitish metodikasi fani boshqa fanlar metodikalari singari ham barcha o'z oldiga qo'ygan vazifalarni to'liq hal etib bo'lgan deb ayta olmaymiz, bu borada izlanishlar davom etmoqda va davr talablaridan, jamiyat rivojlanishining tendentsiyasidan kelib chiqqan, holda astronomiya o'qitish jarayoniga ham yangi pedagogik va axborot texnologiyalari kirib kelmoqda va bu jarayon uzluksiz davom etadi.

Boshqa fanlar kabi astronomiyani o'qitish ham umumiy didaktik maqsadlarni-o'quvchilarni bilim, tarbiya olishlarini va rivojlanishlarini ko'zlaydi. Bu maqsadlar orasida mazmuni bo'yicha ham, amalga oshirish metodlari bo'yicha ham hech qanday aniq chegara bo'lishi mumkin emas. O'qitish jarayonida o'quvchilar nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malaka oladilar va shu bilan birga ularni tarbiyalash va rivojlantirish jarayonlari ham kiradi.

Astronomiyani o’rganishda, bu fanga aloqador boshqa predmetlardan olingan bilimlarga o’quvchilar e’tiborini jalb etish zarur. Xuddi shuningdek, astronomiyadan «Quyosh sistemasining fizik tabiati» mavzusini, jumladan «Gigant sayyoralar»ni o’qitilayotganda astronomiya kishilik madaniyatini ajralmas bir qismi ekanligini, uning boshqa fanlar bilan aloqasi butun tsivilizatsiyamiz tarixi davomida kuzatilib kelinayotganini alohida uqdirish kerak.

Hozirgi zamonda Erdan tashqarida ro’y beradigan kimyoviy jarayonlarni va turli ob’ektlarning kimyoviy tarkibini tadqiq qilish, eng avvalo raketa va kosmik texnikadan foydalanish xisobiga, yangi sifatiy darajaga ko’tariladi. Bu fanlarning aloqasi juda muhim xisoblanadi, chunki fizika bilan aloqada bo’lmay turib, astronomiya kursining asosiy-astrofizika bo’limi bo’yicha chuqur va mustahkam bilimga erishishlarini ta’minlab bo’lmaydi.

Astronomiya darslarida, o’quvchilar gravitatsion va magnit maydonlaridagi harakatlarni o’rganadilar, molekulyar-kinetik nazariya asosida moddaning fizik holatini ifodalashda, nurlanish jarayonlarida va uning modda bilan ta’sirlashishida, issiqlikni uzatish usullarida, atom yadrolarining parchalanishi va sintezi masalalarida ish ko’riladigan deyarli barcha fizik tushunchalar bilan duch keladilar. Bunda o’qituvchining vazifasi, o’rganilayotgan astronomik xodisalarning fizik mohiyatlarini echishda, bu bilimlardan mumkin qadar keng foydalanishga erishishdir. Ko’p hollarda turli masshtablardagi va turli osmon jismlarida ro’y beradigan hodisalarning asosida yotuvchi fizik jarayonlarning mohiyatlariga murojat qilish, o’quvchilar bilimlarini umumlashtirishga katta imkon beradi.

YUlduzlarni o’rganishda gaz qonunlaridan foydalanish, fizika kursidan gazlarning kengayishida chegara yo’qligi o’quvchilarga ma’lum. SHuning uchun ham gaz sharlarining tabiiy holati ko’rinishidagi yulduzlar haqida tushunchalar, ba’zan gaz xossalari haqidagi shakllangan tushunchalarga qarama-qarshi boruvchi kutilmagan paradoks sifatida qayd qilinadi. YUlduzlar xayotida gravitatsion kuchlarning rolini anglash, tabiat hodisalarini yanada chuqurroq analiz qilishga imkon yaratadi. Elektr va magnit maydonlarining o’zaro bog’lanishi haqidagi

tushunchani Quyoshda kuzatiladigan hodisalarni o’rganishda mustahkamlash ayniqsa qulay.

Temperatura haqidagi tushuncha, "Quyosh sistemasi jismlarining fizik tabiati" bo’limida Er atmosfera yuqori qatlamlarining temperaturasidan tortib to yulduzlar qa’ridagi va yulduzlar aro bo’shliqdagi temperatura qaraladigan yakunlovchi kursning astrofizik qismiga tegishli ixtiyoriy materiallarda rivojlantiriladi va chuqurlashtiriladi. Temperatura zarrachalarning kinetik energiyasi bilan bog’lanishi, astronomiyadagi qator hodisalarni tushuntirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun ham o’quvchilarga birinchi navbatda bu bog’lanishni eslatish zarur.

Fizika va astronomiya orasidagi bu uzviy bog’lanish, bu fanlarning rivojlanish tarixidan keltirilgan misollarda ham yaxshi ko’rinadi.

Fizika va astronomiya darslarida bir xil mazmundagi sifat va miqdoriy masalalarni echish, o’qituvchi faoliyatining xarakteri va uning o’quvchilar faoliyatini yo’naltirishdagi farqni aniqlovchi spetsifik xususiyatlarga ega. Fizika darslarida o’quvchining diqqati, ma’lum fizik qonuniyatlarni qo’llab o’quvchilarda aniq tipdagi masalalarni echish malakalarini hosil qilishga qaratilgan. Astronomiya darslarida esa, o’qituvchining diqqat e’tibori, olingan natijalarning mohiyatini o’quvchilar yangicha, shuningdek turli masshtabdagi kosmik xodisalar, Erda ochilgan fizik qonunlar asosida tushuntirilishi mumkinligiga ishonch hosil qilishga qaratiladi.

SHuningdek, astronomiyadan «Gigant sayyoralarning fizik tabiati» mavzusini o’tishda ham fizik tushunchalarga tayaniladi. Ularning kattaliklari (o’lchamlari, massalari, zichliklari va xakozo) va atmosferalariga tegishli fizik tabiat haqida to’xtaladi.

YUqoridagi aytilganlarni hisobga olgan holda, biz «Quyosh sistemasi» bo’limiga tegishli bo’lgan bir qancha mavzularning dars ishlanmasini tuzib chiqdik. Quyida biz astronomik ta’limga innavatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilgan holda ma’ruza mashg’ulotlarini tashkil etish metodikasini «Gigant sayyoralarning fizik tabiati»ni o’qitish misolida ko’rib chiqamiz.

Mavzu telekommunikatsion texnologiyalarni qo'llagan holda, yangi mavzuni bayon etiladi. Bunda, gigant sayyoralar va ularning fizik tabiati, gigant sayyoralarning yo'ldoshlari, ularning tuzilishi, magnitosferasi, gigant sayyoralarni ichki tuzilishi, sayyora yo'ldoshlari va xalqalari tabiatini axborot telekommunikatsion texnologiyalar yordamida o'tish va mavzu yuzasidan o'quvchilarning olgan bilimlarini mustaqil ravishda qo'llashga o'rgatishga e'tibor qaratiladi.

Darsning tehnologiyasi

O'quvchilar soni 25-30	2 soat
Ma'ruza rejasi	1. Gigant sayyoralar. 2. Sayyoralarning yo'ldoshlari. 3. Kosmik apparatlar tomonidan olingan sayyoralarning relefi, atmosferasi va magnitosferasi xaqida ma'lumotlar
O'quv mashg'ulotining maqsadi	O'quvchilarda gigant sayyoralarning fizik tabiatlari va ularning yo'ldoshlari haqida tasavvur va tushunchalarni shakllantirish. Gigant sayyoralarning fundamental astronomik hususiyatlariga (massasi, sirtidagi harorati, o'lchami, zichligi va h.k) tayangan holda dars o'tish tavsiya qilinadi.
Pedagogik vazifalar:	*O'quv faoliyati natijalari:*
- Gigant sayyoralarning fizik tabiatlarini tushuntirish. - Gigant sayyoralarning yo'ldoshlari haqida tasavvur va tushunchalarni shakllantirish.	- Gigant sayyoralarning fizik tabiatlari haqidagi tasavvurlarga ega bo'ladilar. - Gigant sayyoralarning yo'ldoshlari haqida tasavvur va tushunchalarga ega bo'ladilar.
O'qitish usullari	Vizual ma'ruza
O'qitish vositalari	1. Ma'ruzalar matni, proyektor, tarqatma materiallar, ahborot-kommunikatsiya tehnologiyalar imkoniyatlari. 2. «Astronomiya» elektron o'quv-metodik majmua [5].
O'qitish shakllari	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
O'qitish sharoiti	Proyektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	kuzatish, savol orqali, testlar. test natijalari ballari

Darsning tehnologik haritasi

Ish bosqichlari	O'qituvchi faoliyatining mazmuni	Tinglovchi faoliyatining mazmuni
1-bosqich. Tayyorgarlik (10 daqiqa)	Mavzu rejasi, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	Mavzu, rejani yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	O'quvchilarda gigant sayyoralarning fizik tabiatlari va ularning yo'ldoshlari haqida tasavvur va tushunchalarni shakllantirish. Gigant sayyoralarning fundamental astronomik hususiyatlariga (massasi, sirtidagi harorati, o'lchami, zichligi va h.k) tayangan holda dars o'tish tavsiya qilinadi.	Kuzatadi, tinglaydi, daftariga qayd qiladi, qo'shimcha ma'lumotlar beradi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	Mavzuga yakun yasaydi. Darsda faol qatnashgan o'quvchilarga rag'bat bali qo'yiladi	Tinglaydi. O'z o'zini baholaydi.
	Mustaqil ish uchun vazifa beriladi. Individual ravishdagi uy vazifalarni beradi. O'quvchilarning har biriga alohida ravishda Gigant sayyoralar, meteorlar, meteoridlar, asteroidlar va h.k.lar haqida internet banklaridan ma'lumotlar olish va slaydlar yaratish vazifasi beriladi. Darsga yakun yasaydi.	Vazifani qayd qiladi, tinglaydi.

Darsning borishi to'g'risida qisqacha bayon.

Yer stipidagi sayyoralar» mavzusi bo'yicha, uyga berilgan topshiriqlarni tekshirish bosqichida beriladigan qisqacha frontal so'rov savollari:

1. Yer tipidagi sayyoralarning gigant sayyoralardan farqlarini ayting. Kutilayotgan javob: massasi, o'lchamlari, aylanish davrlari, yo'ldoshlari soni, zichligi, Quyosh sistemasidagi o'rni, kelib chiqish sharoitlari va h.k.
2. Yer tipidagi sayyoralarning Gigant sayyoralardan Quyosh tomonidan yoritilganligining farqi? Kutilayotgan javob: Yer tipidagi sayyoralar Quyoshdan ko'proq issiqlik oladilar, ularning sirtidagi xarorat gigantlarnikidan ko'ra yuqoriroq.

3. Parnik effekti qaysi sayyoralarda kuzatiladi? Kutilayotgan javob: Venerada, Yerda.
4. Yer tipidagi sayyoralar asosan nimalardan tashkil topganlar? Kutilayotgan javob: Yer tipidagi sayyoralar asosan zich tosh moddalardan va metallardan tashkil topganlar.
5. Yer tipidagi sayyoralarning o'rtacha zichligi qanday? Kutilayotgan javob: r=4000-5500 kg /m 3
6. Yer tipidagi qaysi sayyora atmosfera va biosferaga ega? Kutilayotgan javob Yer.
7. Yer tipidagi sayyoralarning qaysilarida, deyarli ularning butun massasijamlangan qattiq qobiqga ega? Kutilayotgan javob: barchasida.
8. Yer tipidagi qaysi sayyora zich atmosferaga ega? Kutilayotgan javob: Venera, Yer. Marsda siyrak atmosfera mavjud. Merkura esa deyarli atmosferadan maxrum.
9. Yer tipidagi sayyoralar atmosferasining kimyoviy tarkibi qanday? Kutilayotgan javob: Yerda 78% azot va 21% kislorod, Venerada - 96,5% is gazi, Marsda 95% is gazi.
10. Yer tipidagi sayyoralarning qaysi birining atmosferasi eng siyrak molekulyar massaga ega? Kutilayotgan javob: Yerda 28,8˜10 $^{-3}$ kg /mol, Venera va Marsda 43,5˜10 10 $^{-3}$ kg /mol.
11. Yer tipidagi sayyoralarning kimyoviy tarkibi qanday? Kutilayotgan javob: temir Fe (34,6%), kislorod (30%), kremniy (15%), magniy (13%). Qobig'ida eng ko'p tarqalgan birikmalar - kremniy ishqori.

Yangi mavzuni bayon etishdann oldin, barcha o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish uchun kartochkalar tarqatiladi. Uni qanday bajarish kerakligi to'g'risida tushunchalar beriladi.

	Yer tipidagi sayyoralar	**Gigant sayyoralar**
Sayyoraning massasi		

O’lchamlari (radiusi)		
O’z o’qi atrofida aylanish davri		
Yo’ldoshlarining soni		
Zichligi		
Qattiq qobiq		
Qattiq qobiqning kimyoviy tarkibi		
Atmosferasi		
Kimyoviy tarkibi		
Atmosferaning o’rtacha molekulyar massasi		
Quyosh sistemasida o’rni		
Quyoshdan uzoqligi		
Effektiv harorati		
Magnit maydonlari		

O’quvchilarni 4 guruhga bo’linadi (Yupiter, Saturn, Uran, Neptun).

Dars avvalida reja ma’lum qilinadi va shu reja asosida bevosita internet texnologiyalirini qo’llagan holda dars olib boriladi.

1- ilova

REJA:

- **Gigant sayyoralar.**
- **Sayyoralarning yo’ldoshlari.**
- **Kosmik apparatlar tomonidan olingan sayyoralarning relefi, atmosferasi va magnitosferasi xaqida ma’lumotlar**

O’qituvchi o’quvchilar tomonidan aytilganlarni e’tibor bilan eshitadi, ulardan eng ko’p xatolikka yo’l qo’yilishi mumkin bo’lgan xususiyatga ega bo’lganlarini qayd qilib boradi (bu o’quvchilarning umumiy bilim darajasini va ular tomonidan qo’yiladigan xususiy xatoliklarni aniqlash imkonini beradi) va to’ldirib, tuzatib boradi so’ngra o’quvchilar tomonidan aytilganlarni umumlashtiradi.

Undan keyin yangi mavzuni ma’ruza shaklda bayon etiladi.

Ma’ruza davomida, o’qituvchi tomonidan mavzu yuzasidan tayyorlab kelingan animatsiyali slaydlarni videoproektor yordamida ekranga tushirilib, namoyish qilib boriladi. Agar videoproektor mavjud bo’lmasa, o’quvchilar 1-2 tadan qilib, kompyuterlarga joylashtiriladi va lokal tarmoq orqali bir vaqtning o’zida barcha kompyuterlarda, o’qituvchi tomonidan Internetning aniq bir manziliga ishora qiluvchi gipermatnli materiali namoyish qilinib boriladi.

Mavzuni yoritishda gigant sayyoralarning fizik tabiatini yorituvchi jadvallarni qo’llash katta samara beradi:

2- ilova

Yupiter

O'rtacha Quyoshdan uzoqligi	**5,20 a.b.**
Siderik aylanish davri	**11,86 yil.**
Sinodik aylanish davri	**398,9 sut.**
Orbitaning ekliptikaga g’maligi	**1018’**
Ekvatorial radiusi	**71400 km**
Massasi	**1,90*1030 g**
O'rtacha zichligi	**1,3 g/sm3**
Ekvatorda erkin tushish tezligi	**2500 sm/s2**
O'z o'qi atrofida aylanish davri	**9h 50,5m**
Xaroratining o'rtacha effektivligi	**134 k**
Yo'ldoshi	**27 ta**

3- ilova

Yupiterga Quyosh sistemasidagi barcha sayyoralar massasining 3/2 qismi to'g'ri keladi. Yupiterinng atmosferasining 89% vodoroddan tashkil topgan va 11 % geliy va kimyoviy tarkibi bo'yicha Quyoshni esalatadi. Atmosferasining kalinligi 6 ming km. Atmosferaga olov rangni fosfor va oltingugurt birikmasi beradi. ¤uvchi amiak va atsetindan iborat bo'lgani uchun inson xayoti uchun xavflidir. Sayyora sirtidagi eng mashxur tuzilma bu, 300 yildan beri kuzatilayotgan (u 1664 yilda Robert Guk tomnidan ochilgan) katta qizil dog'.

4- ilova



5- ilova



6- ilova

Io – Yupiter yo'ldoshlarining eng birinchilaridan bo'lib, 1610 yilda Galiley tomonidan ochilgan. Massasi va radiusiga ko'ra yo'ldosh Oyga o'xshagan bo'lib, Yupiter osmonida yorqin qizg'ish disk yoki yarimoy shaklida ko'rinadi. Ioning diametri 3630 km ga teng.

7- ilova

Saturn

O'rtacha Quyoshdan uzoqligi	**9,54 a.b.**
Siderik aylanish davri	**29,46 yil.**
Sinodik aylanish davri	**378,1 sut.**
Orbitaning ekliptikaga og'maligi	**2029'**
Ekvatorial radiusi	**60400 km**
Massasi	**5,68*1029 g**
O'rtacha zichligi	**0,7 g/sm3**
Ekvatorda erkin tushish tezligi	**1100 sm/s2**
O'z o'qi atrofida aylanish davri	**10h 14m**
Xaroratining o'rtacha effektivligi	**97 k**
Yo'ldoshi	**16 ta**

8- ilova

Ushbu sayyora qadim zamonlardan beri ma'lum bo'lgan. Saturnning maksimal yulduziy kattaligi $+0,7^m$. Ushbu sayyora – bizning yulduzli osmonimizdagi eng yorqin ob'ektlardan biridir. Saturnning xalqalari Yerdan turib, uncha katta bo'lmagan teleskop orqali ham ko'rinadi. Ular Sayyora atrofida aylanadigan, ming-minglab unchalik katta bo'lmagan qattiq jismlar, tosh va muzlarning qoldiqlaridir.

Orbitasining katta yarim o'qi 9,584 a.b. ni tashkil etadi, aylanish davri esa 29,666 yilga teng. Orbitaning ekstsentrisiteti e = 0,057 bo'lib, ekliptikaga og'maligi 2^0 29'. O'z o'qi atrofida aylanish davri - yulduz sutkasida – 10 soat 14 minutni (30^0 kenglamada) tashkil etadi. Saturn qattiq jism bo'lmay, gaz va suyuqdikdan tashkil topgani uchun, uning ekvatori qutblariga nisbatan tezroq aylanadi: qutblarda bitta to'liq aylanish davrt taxminan 26 minutga sekinroq kechadi. O'qi atrofida o'rtacha aylanish davri - 10 soat 40 minutga teng.

9- ilova

A,V va S deb ataluvchi uchta asosiy xalqalar mavjud. Ular Yerdan turib ortiqcha qiyinchiliklarsiz ajratiladi. Bulardan tashqari yana nisbatan kuchsizroq D, E, F halqalar xam mavjud. Yaqinlashgan sari xalqalarning juda xam ko'p ekanligi ko'rinadi. Xalqalar orasida tirqishlar mavjud bo'lib, bu Yerda zarralar uchramaydi. Yerdan turib oddiy maktab teleskopi yordamida ko'rinadigan (A va V xalqalar orasidagi) tirqish *Kassini tirqishi* deb ataladi.



10- ilova

Xalqalarning tekisligi orbita tekisligiga 20^0 burchak ostida og'gan. Shuning uchun yil davomida biz ularni maksimal keng darajada ko'ramiz, shundan keyin ularning ko'rinish kengligi kamayadi va taxminan 15 yildan so'ng ular kuchsiz ajratiladigan chiziqqa



11- ilova

Saturn bir ajoyib xususiyatga ega: u - Quyosh sistemasidagi yagona bo'lgan, o'rtacha zichligi suv zichligidan kam bo'lgan (bir kub metrga 700kg) sayyoradir. Agar ulkan okeanni yaratish imkoni bo'lganda edi, Saturn unda suzib yurgan bo'lar edi. Bulutli qoplam sirti balandligida erkin tushish tezlanishi g = 9,44 m/s^2 ni tashkil etadi. Al'bedosi 0,47.

12- ilova

Saturn yo'ldoshlari sistemasi ancha murakkab. 30 ta yo'ldoshlari ma'lum, ular jadvalga kiritilgan. Shulardan 12 tasi oxirgi bir necha yillar ichida ochilgan.

Mimas. To'qnashishdan hosil bo'lgan kraterning diametri 130 km atrofida



Entselad –Quyosh sistemasidagi eng yorqin jism. (al'bedosi 1 ga yaqin).

Tefiya Odissey krateri (400 km, yo'ldoshning 2/5 diametraga teng.) bilan mashxur va 3 ming km ga teng bo'lgan gigant kan'lnlari mavjud.

Diona. Ulkan kraterining o'lchami yonlamasiga 100 km atrofida

13- ilova

Uran

O'rtacha Quyoshdan uzoqligi	**19,18 a.b.**
Siderik aylanish davri	**84,01 yil.**
Sinodik aylanish davri	**369,7 sut.**
Orbitaning ekliptikaga oqmaligi	**0046'**
Ekvatorial radiusi	**24300 km**
Massasi	**8,70*1028 g**
O'rtacha zichligi	**1,6 g/sm3**
Ekvatorda erkin tushish tezligi	**950 sm/s2**
O'z o'qi atrofida aylanish davri	**10h 49m**
Xaroratining o'rtacha effektivligi	**54 (?)**
Yo'ldoshi	**5 ta**

14- ilova

Sayyoralar orasida xaqiqiy ko'k bo'lib, Uran chiqdi. Uran – yangi tarixda ochilgan eng birinchi sayyora bo'lib, u 1781 yilning 13 martida, o'zining teleskopida osmonni kuzatayotgan vaqtida bexosdan Vil'yam Gershel tomonidan ochilgan. Gershel buni kometa deb o'ylab, darxol Grinvichga xabar beradi.

15- ilova

Ko’pchilik sayyoralarda aylanish o’qi ekliptika tekisligiga deyarli perependikulyar, lekin Uranniki deyarli parallel ravishda joylashgan. Urannig yotgan holda aylanishining sababi xali ma’lum emas.



16- ilova

Uranda atmosfera **juda quyuq, qalinligi 8000 km dan kam emas. Uranning atmosferasi taxminan 83% vodoroddan, 15% geliydan va 2 % metandan tashkil topgan. metan, atsetilin va boshqa uglevodorodlar sayyora atmosferasida, Yupiter va Saturnning atmosferasidagidan ko’ra ancha ko’p. Aynan metan qizil nurlarni yaxshi yutadi, Shuning uchun Uran ko’k bo’lib ko’rinadi.**

17- ilova

Kuzatishlarning qiyinligiga qaramasdan, o’tgan asrlar astronomlari Uranning deyarli barcha gigant yo’ldoshlarini ochdilar. Yo’ldoshlar sistemasi sayyoraning ekvatorial tekisligida, ya’ni uning orbita tekisligiga perependikulyar ravishda yotadi. Ichki 10 ta oylari - o’lchamlari bo’yicha kichikdir. 1986 yilda «Voyadjer-2» KAS uzatgan suratlarda 1986U10 yo’ldoshi xozircha shaxsiy nomga ega emas. Uni xam xuddi Uranning boshqa yo’ldoshlari singari Shekspir p’yesalari qaxramonlaridan birining nomi bilan atasalar kerak.

Shu yerda biz уuьiori paragraflarda kщrsatib щtganimizdek, sayyoraning ущldoshlari jadvali va suratlari keltiriladi.

18- ilova

Neptun

O'rtacha Quyoshdan uzoqligi	**30,07 a.b.**
Siderik aylanish davri	**164,8 yil.**
Sinodik aylanish davri	**367,5 sut.**
Orbitaning ekliptikaga oqmaligi	**1046'**
Ekvatorial radiusi	**25050 km**
Massasi	**1,03*1029 g**
O'rtacha zichligi	**1,7 g/sm3**
Ekvatorda erkin tushish tezligi	**1150 sm/s2**
O'z o'qi atrofida aylanish davri	**15h 40m**
Xaroratining o'rtacha effektivligi	**56 (?)**
yo'ldoshi	**8 ta**

24- ilova

1846 yilda Uil'yam Lassel tomonidan ochilgan Triton yo'ldoshi Oydan xam katta bo'lib, u Neptun atrofida teskari yo'nalish bo'ylab xarakatlanadi, Shuning uchun uni olimlar *Koyper belbog'idan* Neptun tomonidan ishg'ol qilib olingan degan xulosaga kelinmoqda.

Tritonda Neptun yo'ldoshlari sistemasidagi deyarli barcha massa jamlangan. Uning zichligi juda yuqori bo'lib, 2 g/sm^3 ga yetadi.

O'quvchilar bilimini baholash: o'quvchilar bilimini baholashda reyting tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunda talabalarga qo'yilgan baho real bo'lishi aniqdir. Reyting tizimidan foydalanganda talabalarning faoliyati to'liq qamrab olinadi, bu talabalarning faolligini oshiradi. Talabalar bilimini baholashda ularning ijodkorligiga alohida e'tibor qaratish zarur. Baho mezonlarini belgilashda odatda har bir fan bo'yicha mavjud dasturlardagi ko'rsatmalardan foydalanish kerak. Bu bosqichda o'qituvchilar tomonidan avvaldan belgilab olingan, ma'lum interent sahifalari manzillarini ko'rsatish orqali internet

testlardan foydalanish mumkin, yoki «Astronomiya» elektron o’quv-metodik majmua [14] “testlar” bo’limiga kiritilgan mavzuga oid testlar blokidan foydalangan holda test olish va baholash mumkin (testlar avtomatik ravishda ballarni chiqarib beradi). SHundan so’ng uyga beriladigan vazifa tushuntiriladi.

CHarxpalak texnologiyasi bo’yicha jadvalni to’ldiring

№	Sayyoralarning yo’ldoshlari	Merkuriy	Venera	Er	Mars	YUpiter	Saturn	Uran
1.	**Fobos**							
2.	**Demos**							
3.	**Io**							
4.	**Ganimed**							
5.	**Evropa**							
6.	**Kalisto**							
7.	**Titan**							
8.	**Entselad**							
9.	**Tefiya**							
10.	**Mimas**							
11.	**Oberron**							
12.	**Titaniya**							
13.	**Umberiel**							
14.	**Triton**							
15.	**Xaron**							

Uyga vazifa: Barcha guruhlar berilgan, ma’lum bo’lgan Internet sahifalaridan sayyoralarning kosmik stantsiyalardan turib olingan fotosuratlarini internet banklaridan axtarib topadilar. Har bir guruh uchun topshiriqlar kartochkalari tarqatilgan.

Yupiter

	Manzil	
Katta qizil dog’	www.iki.rssi.ru/ nineplanets/jupiter.html	
Sayyora atmosferasidagi sohalar va chiziqlar	www.iki.rssi.ru/ nineplanets/jupiter.html	

«Gallileo»dan turib kuzatish	www.jpl.nasa.gov/ galileo/hstimages.html yoki	
Yupiterning yo’ldoshlari	www.iki.rssi.ru/ nineplanets/jupiter.html	
Yupiter xalqalari	www.jpl.nasa.gov/ galileo/callisto/p48188.html	
Shumerker-Levi kometasi	www.iki.rssi.ru/ nineplanets/jupiter.html	
Yupiter atmosferasidagi dog’lar-yirik siklonlar. Yupiterda bir nechta doimiy tuzilmalar topilgan.	antwrp.gsfc.nasa.gov/ apod/ap020205.html yoki	
Yupiterning yo’ldoshi Io	antwrp.gsfc.nasa.gov/apod/ image/0110/ IoNewVolcano_galileo.jpg	
Yupiter qutblarida rentgen chaqnashlar	www.pioner.smr.ru/ distance/planet.html	

Saturn

	Manzil	
Xalqalari	www.iki.rssi.ru/ nineplanets/saturn.html	
Juda tez aylanishi tufayli qutblardagi siqiqligi	www.iki.rssi.ru/ nineplanets/saturn.html	

Saturn xalqalari sistemasi	www.iki.rssi.ru/ nineplanets/saturn.html	
Tashqi A xalqalar Ichki V xalqalardan keskin qora oraliq- Kassini tirqishi bilan ajratilgan	www.iki.rssi.ru/ nineplanets/saturn.html	
Qutb yog'dusi	antwrp.gsfc.nasa.gov/apod/ ap011223.html	
Saturn xalqalarining og'maligin o'zgarishi	antwrp.gsfc.nasa.gov/apod/ ap010702.html	

Uran

	Manzil	
	www.iki.rssi.ru/nineplanets/ uranus.html	
	photojournal.jpl.nasa.gov/cgi-bin/PIAGenPlanetPage.pl?Uranus	
Uranning aylanishi	photojournal.jpl.nasa.gov/cgi-bin/PIAGenCatalogPage.pl?PIA01278	
	photojournal.jpl.nasa.gov/cgi-bin/ uncgi/PIADBSearch.rl	

Neptun

	Manzil	
Ko'k sayyora	www.iki.rssi.ru/nineplanets/ neptune.html	
Katta ko'k dog'	www.iki.rssi.ru/nineplanets/ neptune.html	

	www.iki.rssi.ru/nineplanets/ neptune.html	
Katta qora dog’ va atmosferadagi holat	www.iki.rssi.ru/nineplanets/ neptune.html	
Katta qora dog’ atrofida 1120 km/soat tezlik bilan siljiydigan oq bulutlar to’dasining yig’ilishi	photojournal.jpl.nasa.gov/cgi-bin/ PIAGenPlanetPage.pl?Neptune	
Neptunning infraqizil nurlanishi	www.pioner.smr.ru/distance/ neptune.html	

Kutilayotgan javoblar:

	Yer tipidagi sayyoralar	**Gigant sayyoralar**
Sayyoraning massasi	Yer massasi bilan taqqoslash mumkin	Yer massasidan ancha katta
O’lchamlari (radiusi)	Yerdan kichikroq	Yerdan ancha katta
O’z o’qi atrofida aylanish davri	Yer va Marsda bir sutka atrofida, Merkuriy va Venerada birmuncha ko’proq	Yerdan bir necha marotaba tezroq aylanadilar
Yo’ldoshlarining soni	0 dan 2 tagacha Marsda	Ancha ko’p
Zichligi	$\rho = 4000 - 5500 кг/м^3$	Birmuncha kamroq. $\rho = 1300 кг/м^3$ dan $700 кг/м^3$
Qattiq qobiq	Bor	Yo’q
Qattiq qobiqning kimyoviy tarkibi	temir (34,6%), kislorod (30%), kremniy (15%), magniy (13%). Qobig’ida ko’proq tarqalgan qorishmalar kremniy ishqori.	Yo’q
Atmosferasi	Bor	Bor, juda siyrak
Kimyoviy tarkibi	Yerda 78% azot va 21% kislorod. Venerada – 96,5% is gazi. Marsda 95% is gazi.	Deyarli vodorod va geliydan tarkib topgan.
Atmosferaning o’rtacha molekulyar massasi	Yerda $28.8 \cdot 10^{-3} кг/моль$. Venera va Marsda	Yupiterda $2{,}3 \cdot 10^{-3} кг/моль$

	$43{,}5 \cdot 10^{-3}$ *кг / моль* .	
Quyosh sistemasida o’rni	Quyoshga yaqin	Quyoshdan ancha uzoqda
Quyoshdan uzoqligi	Merkuriy 0,4 a.b. dan, Mars1,5 a.b. gacha	5,2 a.b. Yupiterda, 49 a.b. Plutonda
Effektiv harorati	436 K Merkuriyda, 216 K Marsda	134 K Yupiterda, 36 K Plutonda
Magnit maydonlari	Magnit maydon Yerda kuchli, Merkuriy va Marsda esa kuchsiz.	Kuchli magnit maydoni Yupiter va Saturndan juda uzoqlarga cho’zilgan radiatsion poyaslar bilan birgalikda.

O’quvchilarga alohida - alohida yoki 2-3 ta o’quvchiga bittadan qilib, mavzu bo’yicha sayyora bo’lib beriladi. Ular berilgan ishlar bo’yicha Internet banklaridan foydalangan holda keyingi o’tiladigan mavzusi bo’yicha animatsiyali taqdimot tayyorlab keladilar. Bunday usul yordamida har bir o’quvchi o’zi mustaqil ishlashi davomida mavzuni yana ham tushunib etadi, unda mustaqil ishlash ko’nikmasi hosil bo’ladi, axborotlar izlab topish jarayonida qiziqarli ma’lumotlarga duch keladi va unda fanga bo’lgan qiziqish yanada ortib boradi.

Ishning bunday ko’rinishi o’quvchida mantiqiy fikrlash va yaratuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Fikrlash, bilish faoliyatini faollashtirishga, fanga bo’lgan qiziqishni ortishiga olib keladi. O’quvchi o’zi material tanlagani, uchun, uning ustida mehnat qilgani uchun mavzu bo’yicha bir qancha terminlar yuzasidan tasavvuri ancha shakllanadi. Ishning bunday turida faoliyatning asosiy darajasi - fikr yuritish shakllanadi.

III BOB. PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOVNI TASHKIL ETISH VA UNI O`TKAZISH

III.1. Pedagogik tajriba-sinovni o`tkazishning maqsad va vazifalari

Pedagogik tajriba pedagogik tadqiqotning murakkab va asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Pedagogik tajriba kuzatish bilan chambarchas boђliq, lekin u bilan cheklanmaydi.

Pedagogik tajriba astronomiyani o'qitishda o'ziga xos jarayon bo'lib, ko'rilayotgan sharoitda pedagogik hodisalarni kuzatish imkonini beradi.

Pedagogik tajribaning mazmunini belgilovchi uchta asosiy xususiyatlar mavjud bo'lib, bu xususiyatlar bilan pedagogik tajriba pedagogik tadqiqotning boshqa xususiyatlaridan farq qiladi. Bular quyidagicha belgilanadi:

a) o'qitish jarayoniga tadqiqotning maqsadi va ilgari surilgan gipotezasiga mos ravishda kerakli o'zgarishlarni kiritish;
b) o'quv jarayonining turli tomonlari o'zaro boђlanishini aks ettiruvchi chuqurroq o'rganuvchi sharoitlarni hosil qilish;
c) o'quv jarayoni va unga kiritilgan o'zgarish natijalarini hisobga olish [17,18,19].

Pedagogik tajribaning maqsadi - o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilayotgan vosita va metodlarni, u yoki bu o'quv materialining berilgan hajmini ko'rsatilgan vaqtda o'rganish imkoniyatlarining samaradorligini hal etishdan iboratdir.

Bu aytilganlarning barchasi astronomiyani o'qitish metodikasi sohasida tajribalarga mos keladi. U astronomiya o'qitishning alohida turini (masalan, laboratoriya ishlarini va ularni bajarishda ishlatiladigan asboblarni, darsdagi muammolarning hal etilishini turli usullarini taklif etishni va h.k.), pedagogik amallarni (astronomik tushunchalarni shakllantirishni, talabalar bilimini nazorat qilishni) qamrab oladi. Pedagogik tajriba bir necha haftalardan (tanlangan mavzuni o'qitish) bir necha yilgacha (kursini o'qitish) davom etishi mumkin.

Pedagogik tajribaning eng tarqalgan shakli – nazorat va tajriba o'tkaziladigan guruh (tajriba guruhi) natijalarni o'zaro taqqoslab o'rganishdan iboratdir.

SHularga asoslangan holda, biz pedagogik tajribani quyidagi bosqichlarda olib bordik:

1. Tajriba sinov ishlarini olib borish uchun guruhlar tanlandi va ular tenglashtirildi.
2. Bu guruhlardagi mavjud bilimlar hamda amaliy ko'nikma darajasi aniqlandi.
3. Tajriba guruhida ishlab chiqilgan metodika bo'yicha, nazorat guruhida esa an'anaviy metodika bo'yicha darslar olib borildi.
4. Ikkala guruhda ham erishilgan bilim ko'rsatgichlari, darajasi aniqlandi.
5. Bilimlar, amaliy ko'nikmalarning o'sish darajasi baholab borildi.
6. Har ikkala guruhda olingan tajriba natijalari taqqoslanib, ishlab chiqilgan metodikaning afzalliklari aniqlandi va natijalar tahlil qilindi.
7. Ishlab chiqilgan metodikaning kamchiliklari tuzatilib, takomillashtirib borildi.

Ishimizning maqsadi – akademik litseylarda astronomiya ta'limi mazmunini axborot kommunikatsiya texnologiyalari muhitida takomillashtirish va uni o'qitish metodikasini ishlab chiqish hamda astronomiya ta'lim jarayoniga qo'llashdan iborat bo'lganligi uchun, biz, tajriba sinov ishlarini tashkil etish uchun Respublika 1-tibbiyot akademik litseyida astronomiya fanini eksperiment maydoncha sifatida tanlab oldik.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun tanlangan pedagogik ta'lim muassasalarining astronomiya o'qituvchilariga tajriba-sinov o'tkazish uchun tayyorlangan didaktik va tarqatma materiallarning hamda darslar ishlanmalarining kompyuterdan chiqarilgan matnlarini, elektron disklarga yozilgan astronomiyada qo'llash uchun mo'ljallangan dasturiy vositalar, o'quvchilarga beriladigan so'rovnoma savollarini tarqatdik. Tizimli holda o'qituvchi vao'quvchilarning ishlari muntazam nazorat qilib borildi. Mavzuni o'tishdan oldin o'qituvchi bilan mazkur mavzu mazmunini yoritishda qo'proq nimalarga e'tibor berish kerakligi va o'tilgan mavzularning qiziqarli va samarali bo'lishi uchun qanday metodlarni

qo’llash mumkinligi to’ђrisida amaliy ko’rsatma va metodik tavsiyalarni berib bordik.

Pedagogik tajriba-sinov o’tkazish oldidan, astronomiyadan o’tkaziladigan namoyishli tajribalar bajarish haqida suhbat, kuzatish, savol-javob va yozma-nazorat ishlarining tahlili shuni tasdiqladiki:

1) ta’lim muassasalarida kompyuterda namoyishli tajribalar deyarli bajarilmagan;
2) o’qituvchilar kompyuterda namoyishli tajribalarni bajarishlari uchun, nazariy bilim, amaliy ko’nikma va malakaga ega emaslar;
3) barcha tanlangan ob’ektlarda darslar oddiy, oђzaki ma’ruza shaklida, qoђozli plakatlardan foydalanib o’tib kelingan.

Nazorat guruhlarida astronomiya fani bo’yicha dars o’tishda an’anaviy dars o’tish metodlaridan bo’lgan o’quv mavzusini oђzaki bayon qilish, suhbat, darslik bilan ishlash, plakatlar namoyish qilish va amaliy mashђulotlar metodlaridan foydalanildi. Tajriba guruhlarida esa umumiy astronomiya kursi bo’yicha dars o’tishda, noan’anaviy dars o’tish metodlaridan - kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalangan holda bahs munozara darslari asosida tashkil qilib, darslar olib borildi. So’ngra, bu guruhlar o’quvchilarining olgan bilimlari tekshirildi. Bunda o’quvchilar bilimini tekshirish va baholash savol-javob, dasturlashtirilgan interfaol test, qisqa yozma ish va mustaqil ish usullaridan foydalanildi.

Tajriba guruhlari tanlangan didaktik materiallarni o’rgatishda quyidagi metodlardan o’rni bilan foydalanib borildi: suhbat, oђzaki bayon etish, savol-javob, kompyuterda dasturlashtirilgan interfaol testlar, kuzatish, o’lchash, sxema, grafik va jadvallarni namoyish etish, virtual tajribalar ko’rsatish.

III.1. Akademik litseylarda astronomiyani o’qitishda pedagogik tajriba - sinov natijalari

Yuqorida keltirilgan masalalarni hal etish uchun pedagogik tajriba-sinovning izlanish qismi boshlandi.

Astronomiyadan tajribalar bajarish bo’yicha o’quvchilarning nazariy bilimi, amaliy ko’nikmalarini aniqlash maqsadida, tegishli barcha tajriba guruhlarda kompyuterda test-nazorat ishlari olib borildi. Olingan ma’lumotlarni taqqoslab, tahlil qilganimizdan keyin, bunday farq borligi sababini aniqlashga kirishdik. Astronomiya o’qituvchilari bilan olib borilgan suhbat natijasida, tanlab olingan guruhlarda astronomiya mashђulotlarida kompyuter texnologiyalari qo’llanilmasligi ma’lum bo’ldi. Bularning sabablaridan biri kompyuter texnologiyalarining etishmasligida bo’lsa, yana bir sababi, o’qituvchilarning kompyuterda ishlash ko’nikma va malakalarining yetarli emasligi hamda astronomiya o’qitishda qo’llashga doir metodik ishlanmalar va kompyuter dasturiy mahsulotlarining etishmasligi aniqlandi. Astronomiya o’qituvchilari kompyuter va internet texnologiyalarida namoyishli tajribalar bajarishga doir materiallar mazmunini, xususan, ularni bajarishni qo’llay olish ko’nikmasiga ega emaslar. Bunday holat keyingi o’tkazilgan sinov ishlarining natijalarida ham sezildi. Dastlabki tajriba ishimizda tajriba-sinovni tashkil qilishdagi umumiy ilmiy vositalar va innavatsion texnologiyalar metodlari aniqlandi. Tavsiya etilayotgan astronomiyadan kompyuterda bajarishga mo’ljallangan ishlarni bajarishning tushunarli bo’lishi, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan tanlash metodlariga asoslanib aniqlandi.

Tajriba va nazorat guruhlarida o’quvchilarning o’zlashtirishini taqqoslash maqsadida, guruhlarda o’zlashtirish bahosining o’rtacha qiymati olindi.

Tajriba guruhida:

Guruhlar	**O’quvchilar soni**	**5 ball**	**4 ball**	**3 ball**	**2 ball**

Nazorat guruhida:

Guruhlar	**O’quvchilar soni**	**5 ball**	**4 ball**	**3 ball**	**2 ball**

Biz bajargan tajriba-sinov ishlari axborot texnologiyalari muhitida olib borilgan darslarda o’quvchilar tomonidan eslab qolgan bilimlar salmoђi an’anaviy usulda olingan bunday natijadan ancha yuqori bo’lishini ko’rsatdi. Bu o’quv jarayonida «ko’rish-eshitish» usuli yuqori samara berishini yana bir bor isbot qildi.

O’tkazilgan tajriba-sinovining ikki jihatiga e’tibor berish lozim deb hisoblaymiz:

- birinchidan, tajriba-sinov natijasida biz o’quvchilarning tajribada o’tilayotgan mavzuni o’zlashtirish darajasi o’zgarganligini, yuqoridagi tajriba-sinov ishlarida ortganligini, ko’rsak,

- ikkinchidan tajriba-sinovda ishtirok etayotgan o’quvchilar dars jarayoni o’zgarganligini ko’radi va bu o’zgarishlar ma’ruza mavzusini to’laroq yoritib berayotganligiga ishonch hosil qiladilar.

XULOSA

1. Bitiruv malakaviy ishimizning tajriba sinov ishlarini umumlashtirish va pedagogik sinov natijalarini tahlil etish asosida quyidagicha xulosa qilishga muyassar bo'ldik. Ta'limni namoyishli tajribalar asosida takomillashtirishning metodologik, didaktik hamda metodik funksiyalarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish natijasida hozirgi zamon astronomiyasini axborot texnologiyalari muhitida o'qitishga o'tish – bu zamon talabi ekanligi aniqlandi. O'quv ma'lumotlar ko'lami keskin ortayotgan davrda bakalavriat bosqichida ta'lim olayotgan talabalar uchun astronomiya fani mazmunining o'ziga hos farqli jihatlari mavjud ekanligi va ularni e'tiborga olish kerakligi aniqlandi. Astronomiya ta'limi mazmunini to'laqonli joriy etilishi uchun astronomiyani o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish zarurligi aniqlandi.

2. Qayd etib ўtilgan bir qancha muammolar mavjudligini e'tiborga olgan holda, akademik litseylarda astronomiya ta'limi samaradorligini oshirishdagi asosiy masala, o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatlarini rivojlantirishni ta'minlash zarurligi yana bir bor o'z isbotini topdi.

3."Gigant sayyoralar" mavzusini axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanilgan holda o'qitish metodikasini ishlab chiqdik va amalda sinab ko'rdik. Barcha tavsiya etilayotgan metodik ishlanmalar samaradorligi tajribada sinab ko'rildi. Tajriba-sinov ishlari tahlili, tavsiya etilayotgan barcha usul va vositalar astronomik bilimlar berishda hamda o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishlarida yuqori samaradorlikka erishilganlikni ko'rsatdi.

4. Darsga tayyorlanishda internet yangiliklari va resurslaridan keng foydalanildi. Mustaqil ta'lim olish, mustaqil ravishda darslarga tayyorlanish, kompyuter va internet asoslarida ishlay olish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida astronomiyaga oid internet ma'lumotlari va ularning manzillari bilan tanishtirib, ulardan foydalanish yo'llari o'rgatib borildi.

Tajriba-sinov natijalari axborot texnologiyalari muhitida o'tkazilgan astronomiya mashg'ulotlariga o'quvchilarning qiziqishini va unda ishtirok etish

faolligini ortganligi va bu mashg’ulotlar o’quvchilarga rivojlantiruvchi ta'sir etayotganligini ko’rsatdi. Ularning mashg’ulotlarni zamonaviy axborot va telekommunikasiya texnologiyalari vositasida tayyorlash va olib borish metodikasini o’rganishga qiziqishlari va intilishlari ortdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. Zamonaviy kadrlar — taraqqiyotimizning muhim omilidir. «Xalq so'zi» gazetasi. 7 iyun, 1997.
2. Karimov I.A. Zamonaviy kadrlar tayyorlash-isloxatlar muvaffaqiyatinint asosi. «Xalq so'zi» gazetasi. YAnvar, 1998.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.:O'zbekiston, 1999. –B. 37-38.
4. Xalq so'zi. № 101 (2663). 1-sahifa. 24 may, 2001.
5. Xalq so'zi. № 116 (2944). 1-2-sahifa 1 iyun, 2002.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisning IX sessiya materiallari. -T.: 29 avgust, 1997.
7. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun. -T.: Ma'rifat gazetasi. 1 aprel, 1998.
8. «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi», Xalq ta'limi, 1998. №1, 5-41 b.
9. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar, muammolar, echimlar. Ilmiy amaliy konferentsiya materiallari. -T.: O'z PFITI. 4-5 may, 1999. 212 b.
10. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. -T.: SHarq. 1999, 4-maxsus son.
11. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Tarmoq standarti. Tayyorlov yo'nalishi: aniq fanlar. -T.: 2000.
12. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari. -T.: Sharq. 2001.
13. Abdukadirov A.A. Teoriya i praktika intensifikatsii podgotovki uchiteley fizika-matematicheskix distsiplin. Aspekt ispolzovaniya kompyuternыx sredstv v uchebno-vospitatelnom protsesse. Diss. …dok. ped. nauk. – T.: 1990.
14. Sattarova B., Begimqulov U., Sattorov I. Astronomiya. Elektron darslik // O'zbekiston Respublikasi davlat patent idorasi. Guvohnoma №DGU01457. 04.12.2007.

15. Sattarova B. Astronomiya o’qitishda axborot texnologiyalarini qo’llash. // Aniq va tabiiy fanlarni o’qitish muammolari: oliy o’quv yurtlariaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 4-5 yanvar 2008. -Toshkent, 2008. -B.49-53.
16. B.Sattarova. Astronomik ta'limda axborot texnologiyalarini qo’llash zamon talabi // Fizika ta'limi taraqqiyoti va istiqbollari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 23-24 may 2008. - Qarshi, 2008. - B. 82-83.
17. Matyushkin A.M. Problemnie situasii v mishlenii i obuchenii. -M.: Pedagogika, 1972. -208 s.
18. Ponomarev Ya.A. Psixologiya tvorchestva i pedagogika. -M.: Pedagogika, 1976.
19. Kameneskiy S.E., Soloduxin N.A. Modeli i analogii v kurse fiziki sredney shkoli. Posobie dlya uchiteley. - M.: Prosveshenie, 1982. - 96s.
20. http://photojournal.jpl.nasa.gov - Quyosh sistemasi ob’ektlari (1000 dan ortiq)
21. http://www.seds.org/billa/tnp/enceladus.html - sayyoralar yo’ldoshlari. Entselad.
22. http://www.willbell.com/ - MegaStar
23. http://zgr.kts.ru/astron/asoft/asoft1.htm. Home Rlanet
24. http://www.fourmilab.ch/homeplanet/homeplanet.html
25. http://www.davidchandler.com/
26. http://cybersky.simplenet.com/d.htm
27. l http://spacelink.msfc.nasa.gov/Instructional.Materials/ Multime-dia/
28. Satellite.Tracking/Satellite.Tracking.Software/Windows
29. STSORBIT PLUS
30. http://antwrp.gsfc.nasa.gov/apod/astropix.html
31. http://www.stsci.edu/public.html
32. http://oposite.stsci.edu/pubinfo/Pictures.html
33. http://www.aao.gov.au/images.html

IZOHLI IUG'AT

